[1] Хаус П., Хуглер Р. Единство и трансграничная безопасность через лисом испытаний. Публикация №4. Центра имени Дж. Маршалла, 2002 г. с 105.

(davlatlar chegaralidan oldin) birinchi o'rinda milliy etnik qavm yashayotgan hududlarni nazarda tutiladi. Geosiyosiy maydon tushunchasi keng ma'noga ega bo'lganligi bois, milliy masalalarni tadqiq etishda holatiga qarab klassifikatsiyalanadi, ya'ni:

- „endemik maydon – uzoq vaqtlardan beri ma'lum bir milliy guruh tomonidan nazorat qilib kelinayotgan borliq bo'lib o'sha borliqning aynan shu jamoaga tegishli ekanligini boshqa milliy jamoalar tomonidan tan olinishini nazarda tutadi. Ba'zan endemik maydon davlatlarning chegaralarini inkor etadi va boshqa geosiyosiy maydonlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Masalan, Sharqiy Turkistonda yashovchi uyg'urlar hayotini olaylik. Ular o'zlarini milliy kelib chiqish jihatidan turkiy qavmga oid deb hisoblab, separatistik harakatlar olib borayotgan bo'lsada, bugungi (tarixiy emas!) davlatchiliklda uyg'urlar yashayotgan o'zlar Xitoy davlatchiligi yurtlariga tegishlidir. Shunday bo'lsada uyg'urlar milliy muammosining

geosiyosiy xaritasi hozirgi Xitoynino g'arbiy chegaralarini muayyan darajada (millat vakillari yashayotgan geografik hududlarni e'tiborga olganda) nisbiylashtiradi."[1]

– chegaraviy maydon – bunday maydon da mo'lum bir milliy jamoa istiqomat qilsada, davlatning u yerda nazorat qilish funksiyasi rasmiy xarakterda bo'lib yashayotgan odamlar turmush tarzi chegaradosh davlatga yaqinroq bo'ladi. Masalan Shimoliy O'zbekistondagi millat vakillarining Rossiya davlati turmush tarzi bilan, Shimoliy Tojikistondagi, Qirg'izistonning O'sh viloyatidagi yoki Janubiy O'zbekistondagi O'zbeklarning O'zbekistondagi O'zbeklarning O'zbekistondagi xalqlar turmushi bilan nafaqat tarixan, balki ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlar asosida bir-biri bilan uyg'unlashgan. Ular yashayotgan makonni chegaraviy maydonga aylantirgan omil – ularning turli davlatchilikka ozodligi

[1] Ашимбаев М. Основные задачи безопасности и направления регионального сотрудничества в центральной Азии." Азия и Африка сегодня // Analytic - 2001 №3 с 47.

bilan izohlanadi;

– chorrahaviy yoki tutashgan maydon – qanday milliy jamoalarning yashashidan qat'iy nazar, ikki yoki undan ko'proq davlatlar davogar bo'lgan geosiyosiy borliq. Biroq u chegaraviy maydondan milliy jamoaning atrofida emas, endemik maydon ichkarisida joylashgan bo'lishi bilan (masalan, Tog'li Qorabog'), mintaqadagi jamoaning etnik diniy tarkibi tarixan o'sha jamoaga mansub bo'lsada, borliqning bugungi davlatlar chegarasida chorrahaviy xarakter kasb etayotganligi bilan farqlanadi. Masalan Turkiya, Eron, Iroq va Suriya davlatlarining geografik jihatdan tutashgan muayyan hududlarida – chorrahaviy maydonda 40 mln. ga yaqin kurd xalqining yashab kelayotganligi va bunday geosiyosiy bo'shliqdan chiqish uchun milliy mustaqillik yo'lida olib borayotgan harakatlarini eslashimiz mumkin;

– „hadsiz - hududsiz maydon – bu keng geografik maydon bo'lib, u yerda istiqomat qilayotgan yuzlab milliy

mustaqillik yōlida olib borayotgan harakatlarini eslashimiz mumkin.

— „hadsiz - hududsiz maydon - bu keng geografik maydon bōlib, u yerda isti qomat qilayotgan yuzlab milliy jamoalar hurmush tarzi ma'lum bir geosiyosiy kuch yoki millat vakillari tomonidan nazoratga olinishini nazarda tutadi. Masalan sobiq SSSR davridagi milliy munosabatlar.

Xullas, milliy-etnik muammolarni geosiyosiy asosda ōrganish mavjud. davlatlarning ma'muriy-geografik hududlarini, uning chegaralarini har doim ham hisobga olavermas ekan. Geosiyosatning bunday ijtimoiy tabiati chegaradosh davlatlar ōrtasida milliy-etnik muammolar (hudud orqasidagi)ning mavjudligini emas, balki muammo tahdidning an'anaviy bōlishidan darak beradi."[1]

Kuchlar muvozanati. Har qanday kuchlar muvozanati tomonlar ōrtasidagi munosabatlar asnosida yuzaga keladi.

---

[1] Зюринцев А., Мирзоянов Ш, Центральная Азия: основные направления усиления интеграционных процессов // Мировая экономика и международные отношения. – 1987 № 12 с.99.

Geosiyosiy munosabatlar – turli (dunyoviy) siyosiy kuchlarning nisbiy birligini yoki ular ortasidagi kelishmovchiliklarni va boshqa shu kabi munosabatlarni naraz-da tutadi.

Agar jahon tarixida kechgan siyosiy jarayonlarga e'tibor bersak, dunyoviy kuchlar ortasidagi birlik va hamkorlik davriy ko'rinishiga egaligiga amin bolamiz. Bu borada Buyuk Britaniyaning taniqli siyosiy arbobi U.Cherchillning (1874-1965) Angliyaning doimiy do'stlari, ittifoqchilari yoq, undan faqat doimiy siyosiy (geosiyosiy) manfaatlar bordir, degan so'zlarini eslashimiz mumkin.

Demoqchimizki, dunyoda (manfaatlar aqasida) barhaq tinchlik, davlatlar o'rtasida abadiy hamkorlikka erishib bolmaydi. Yani dunyoviy siyosatda qaramo.-qarshiliklarning bolmasligi masolasi nisbiy hodisa ekan. Mazkur mulohazalar asosida geosiyosatning kuchlar muvozanati kategoriyasi yuzaga kelgan.

„Kuchlar muvozanati" konseptsiyasi

davlatlararo munosabatlar tizimining amaliyotda qanday namoyon bolish shakllari ni aniqlab beradi. Dylik A davlat bilan V davlat ortasida qarama-qarshilik chiqdi. Ularning har bir harbiy siyosiy va iqtisodiy jihatdan ortiqcha potentsialga ega, yo'ni tomonlar ortasida muayyan kuchlar muvozanati mavjud. Amaliyotda A davlatning V davlatga nisbatan ustuvorligi sezilib turibdi. Agar tashqi omil sifatida biror S davlat V kuchga yordam berso kuchlar muvozanati orqasidagi munosabat - natija V davlat foydasiga hal boladi. Agar S davlat A va V ortasidagi munosabatlarga nisbatan qo'shilmaslik siyosatini yuritsa, tabiiyki A kuchning qoli baland keladi. Lekin galabaga erishgan A davlatning kelajakda S davlatni ham ortiqcha boysundirmasligi kafolatlanmagan. Bunday sharoitda S va V davlatlarining hamjihatligi muqarrar."[2]

Bu misol jamiyatda kuchlar

---

[2] Бергер П. Культурная экономика глобализации В. кн.: Многомерная глобализация. Культурное разнообразие в современном мире – М., 2004.г с.242.

muvozanatning klassik ko'rinishi va soddo tahlili hisoblanadi. Ardb dunyodo „sovuq urush" davrida kuchlar muvozanatini tadqiq etishga atroflicha e'tibor beriladi. Ular qanday ilmiy yondashuvlarni olmang, uning markazida SSSR-AQSH munosabatlari, ular „kuch" larining qiyosiy tahlili turadi. „Sovuq urush"dan keyin va konseptsiyaga nisbatan qiziqish ilmiy doirada biroz susaygandek bo'ldi. Shunday bo'lsada, bugun ham „kuchlar muvozanati" konseptsiyasi o'rnini ikkita asosiy prinsipi — kuchlarning harbiy potentsiali va „hech qanday doimiy aloqalar emas, faqat doimiy manfaatlar" prinsipiga asoslangancha qolmoqda.

Umuman, geosiyosatda (siyosiy) kuchlarning, kuch markazlarining mavjudligini inkor etish qiyin. Shuning uchun ko'pchilik tobora marifiylashib borayotgan jamiyatda kuchlar muvozanatidan emas, balki mavjud kuchlar o'rtasidagi hamkorlikdan bahs etishni afzal ko'rishmoqda.

Siyosiy borliq — bu geosiyosatning

asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Davlat (kuch) geosiyosatning markaziy tushuncha lardan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayoti mazmunini ko'rsatib beruvchi omildir.

„Siyosiy borliq davlat turmush tarzini ko'rsatib beruvchi dastlabki nishona ham hisoblanadi. Shuning uchun geosiyosiy davlatlar o'rtasidagi borliqiy (makoniy) munosabatlarga katta e'tibor beriladi. Chunki borliq tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosini tashkil etadi. Har qanday davlatning geosiyosiy borliqi chegaralangan, ya'ni u muayyan chegaralar doirasida bo'ladi. Chegara esa davlat zaifsizligini ta'minlovchi, siyosiy borliqni ko'rsatib beruvchi geosiyosiy funksiyasini bajaradi. Siyosiy borliqda chegaraning tutadigan funksiyalari:

a) siyosiy

b) himoya qilish

v) harbiy - strategik bo'lishi mumkin[1]

Geosiyosatda chegara muammosiga

---

[1] Геополитика: теория и практика // Сб. ст – М., „Мысль" 1993 г.

ijtimoiy hodisa sifatida qoraladi. Chunki qachon borliq uzra nazorat boshlansa siyosiy borliqlar chegarasi buziladi. Yoki biror kuchning borliq uzra nazoratni o'rnatishi, siyosiy borliqlar chegaralarini inkor etish va buzish ro'yxatiga bo'lishi mumkin.

Manfaat. Manfaatga muayyan guruhlarga moddiy va ma'naviy tomondan foyda keltiruvchi omil sifatiga qarash mumkin. Biroq geosiyosatda manfaat tushunchasi kengroq ma'noda - xalqlar davlatlar manfaatlaridan kelib chiqib talqin etiladi. Shunday ekan har bir davlatning milliy manfaatlari o'sha davlat zimmasiga yuklangan bosh vazifa qonuniy asoslarga ega bo'lgandan kelib chiqib tarkib topgan bo'ladi.

Milliy manfaat geosiyosiy mohiyatga ega. Shuning uchun ham manfaat tushunchasi geosiyosatning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Xo'sh, milliy manfaatning geosiyosiy jihatlari amaliyotda qanday namoyon bo'ladi?

„Bizningcha, milliy manfaatning geosiyosiy tushi olishi avvalo o'sha davlatda

olib boradayotgan ichki siyosatning tarkibiy qismini tashkil etuvchi asosiy vazifalar va maqsadlardan boshlanadi. Negahi, har bir davlat aniq bir tarixiy sharoit, taraqqiyot va barqarorlik manfaatlari, milliy-tarixiy xususiyati va qadriyatlaridan kelib chiqib, uzoq va yaqin kelajakda amalga oshirish zarur bolgan asosiy vazifalarni va maqsadlarni belgilaydi. Masalan, bugungi kunda Özbekistonning ololida turgan asosiy ustuvor masalalar – jamiyatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan erkinlashtirish; jamiyat ma'naviyatni yeksaltirish, xalq turmush darajasini oshirish; iqtisodiyotda tarkibiy ögarishlar, barqarorlik, tinchlik, totuvlik va davlatimiz hududining daxlsizligini ta'minlash va b. hisoblanadi. Ushbu vazifa va maqsadlar davlatimiz milliy manfaatlari tizimida öz aksini topgan[2]. „Tabiiyki, har qanday ichki (davlat) manfaatlar tarkibini tashkil etuvchi

---

2 Ли Цзинцзе, Основные особенности современной геополитической ситуации и Центральной Азии В.кн.: Изменяющаяся Центральная Азия и региональное сотрудничество. Материалы научной региональной конференции. — Душанбе. 2005.г. с163.

maqsad va vazifalar davlat tashqi siyosati bilan uyg'unlashish asnosida davriy dolzarbligi, mantiqiy ustuvorligiga qarab geosiyosiy jihatdan taqsimlanadi. Uning geosiyosiy taqsimlanishi quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin.

1) o'ta muhim manfaatlar. Vaqt jihatdan doimiy ravishda yoki zudlik bilan ta'minlanishi lozim (masalan, davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mustahkamlash). Ba'zida manfaatlarning bu turi millat va davlatni asrab qolishga bo'lgan mavjud tahdidlar bilan bog'langan bo'ladi (masalan, xalqaro terrorizmga qarshi kurash).

2) muhim manfaatlar. Vaqt jihatdan yaqin kelajakda amalga oshirish nazarda tutiladi (masalan, davlat xavfsizligini doimiy ravishda ta'minlab borish).

3) istiqbolli manfaatlar. Vaqt jihatdan kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan manfaatlar (masalan, agar davlat xalqaro transkomunikatsion tarmoqlardan uzoqda joylashgan bo'lsa, uning bosqichma-bosqich o'sha tarmoq tizimiga

kirishga intilishi)"[1]

Ko'rinib turibdiki, har bir davlatning milliy manfaatlari valutsiyasi oxir oqibat jahon siyosati bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham jahon siyosati asosida nafaqat manfaat tushunchasi turadi, balki har bir milliy manfaatlar amaliyoti jahon siyosatini harakatga keltiradi. Shu tariqa davlatlarning o'z manfaatlariga erishish yo'lidagi harakatlari, unga intilishi jahonda muayyan kuchlar muvozanatini yuzaga keltiradi. Ana shu bosqichda geosiyosatning manfaat kategoriyasi kuchlar muvozanati kategoriyasi bilan amaliy jihatdan o'zaro tutashadi.

Turlish yoki jahon geosiyosiy xaritasida namoyon bo'lish jihatidan geosiyosat fanining kategoriyalariga quyidagilar kiradi: davlat (masdlar davlatning geosiyosiy kuch sifatida shakllanishi), kuch markazlari (davlatning mintaqa miqyosida yoki global ko'rinishida, siyosiy, iqtisodiy va boshqa

---

Gorpoev C.C. Markaziy Osiyodagi geosiyosat – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 2005 y.

tomonlardan imkoniyatlarning kengligi), geosiyosiy ittifoqlar (masalan nemis tadqiqotchisi K. Xausxofyerning Berlin – Moskva – Tokio konsepsiyasi), geosiyosiy chiziqlar (masalan, jahon siyosiy xaritasidagi „notarqarorlik yoy"lari, ularning yönalishi), geosiyosiy mintaqa geostrategik mintaqa va. b.

„Geosiyosiy mintaqa – bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa alqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bolgan geografik maydon. Masalan, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Xitoy va b. tomonlardan imkoniyatlarning kengligi), geosiyosiy ittifoqlar (masalan, nemis tadqiqotchisi K. Xausxofyerning Berlin – Moskva – Tokio konsepsiyasi), geosiyosiy chiziqlar (masalan, jahon siyosiy xaritasidagi „notarqarorlik yoy"lari, ularning yönalishi), geosiyosiy mintaqa, geostrategik mintaqa va b.

„Geosiyosat mintaqa bu – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa alqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bolgan

geografik maydon. Masalan Janubiy-Sharqiy Osiyo, Shirqiy Yevropa, Xitoy va b.

Geostrategik mintaqa – bunino geografik joylashuvi, turmush tarzi, xarakteri, savdo va madaniy-mafkuraviy aloqalarnino yönalishi bilan xorijiy davlatlar bilan tashqi siyosatda munosabatlar örnatish uchun ustuvor yönalishda kötilayotgan makon. Shuninodek, geostrategik mintaqa – bu davlat yoki chegaradosh davlatlar (mintaqa) hududlari ham bölishi mumkin. Unino geostrategik ahamiyati muhim transkomunikatsion yöllarga tutashganligida. Dengizga chiqishga qulay hududda joylashganlikda va boshqa shu kabi boshqa körinishlarda namoyon bölishi mumkin"[1]

Aytish joizki, geosiyosatnino mohiyatiga va fannino tuzilishiga köra mavjud bölgan kategoriyalari, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan örganish muhim ahamiyatga egadir.

1 Гюринчев А., Мирзаханов Ш. Центральная Азия: основные направления усиления интеграционных процессов // Мировая экономика и международные отношения – 1997. № 12. с 45.

1.2. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyaning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar.

Mintaqada bundan bir necha yil oldin sobiq Ittifoq zududidan yangi kishta davlat ajralib chiqishini va ular ortasida yangicha munosabatlar tizimi shakllanishini hech kim kutmagandi. Shu sababli mintaqadagi integratsion jarayonlarga nisbatan mutaxassislar ortasida bir qator savollar yuzaga chiqdi. Ya'ni mintaqadagi integratsion uyushma qanchalik chidamli? Mintaqaviy integratsiya qandaydir tashqi ambitsiyalar mevasi emasmi? Shakllanayotgan yangi makonda geosiyosiy iqtisodiy va madaniy olimlarning o'rni qanday? Mintaqada siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda sukutlarning yo'nalishlari birmi va ular mintaqaviy birlikni saqlab qolishga qodirmi?

To'g'ri, uzoq vaqt davomida „Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy maboni turli xil kuchlar tarqalishi va ta'siri ostida shakllangan. „Markaziy Osiyo"

jumlasining esi ham Yevropadan kelib chiqqan hisoblanadi. Qadimda Osiyo mintaqasining ichki — kirishi qiyin bolgan sarhadlari „Ichki Osiyo" atamasi bilan nomlangan. Tabiiyki, geografik jihatdan mavhum bolgan va noaniq atama yangi davrga kelib Osiyoning ichki tumanlarining ham organilganligini korsatadi. Bu narsani yuzaga chiqargan yondashuvlarni mintaqaga (Markaziy Osiyo nazarda tutilmoqda) nisbatan yetakchi davlatlarning qiziqishi XVII-XVIII asrlardan keyin oshganligi va uning tadrijiy asosda rivojlanganligi bilan bolash mumkin. Bu jarayon ikki korinishda namoyon boldi desak boladi, yani biz tomondan, Yevropa ilmiy doiralarining qiziqishi bolsa, ikkinchi tomondan, jahon siyosatiga tasir etadigan imperiyalarning xududiy esish jarayoni kelayotgan edi"[1]

„XIX asrning oxirlarida rus va garb tadqiqotchilari orasida Markaziy Osiyo — Turkiston tushunchasi bilan boglanib

[1] Бобак В. Центральная Азия: проблемы постсоветской интеграции // Центральная Азия и Кавказ — 1997. №: 3. с.151

qoldi. Ayish joizki „Turkiston" atamasi xududni birlashtiradigan tillar yaqinligi, madaniy yaqinlik, turmush tarzi yaqinligi tufayli yagona tarixiy - madaniy makon sifatida tushinilgan.

Bu atamaning oxirgi talqini XX asr o'rtalarida paydo bo'ldi. Uning qamrovige O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston sovet respublikalari kirgan edi. Sovet davrida bu mahonni „O'rta Osiyo, Qozog'iston" deb atagan lar: Bizningcha, bunday talqin va mintaqani ajratish quyidagi omillar bilan bog'liq:

- birinchidan, Qozog'istonning Rossiya tasir doirasiga ilgarirok kirganligi hamda u yerda turkiy bo'lmagan aholining ko'rsatkichlarda ko'payganligi va ularning shu yerda muqimlashganligi;
- ikkinchidan, Qozog'iston hududining katta qismi geografik jihatdan G'arbiy Sibir sharoitiga mos kelganligidadir[1]

Tarixga e'tibor bersak, yangi davrgacha Markaziy Osiyodagi ma'muriy - hududiy bo'linishiga etnik omil ham

[1] Игнатов А.И. Кочерева Л.Д. Россия как Евразия: идеология и геополитика — СПб: АСТ. 1995.г. с 17.

kuchli ta'sir etgan.

Masalan, O'ŝgon xonligining yerlarida asosan qoroqlar va qirg'izlar yashagan bo'lib uning markazi turkiy va forsiy tillarda gapiradigan aholi yashaydigan o'troq hayot markazi Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, Xiva xonligi o'z tarkibiga turkmanlar, o'zbeklar, qoroqlar va qoraqalpoqlar yashaydigan yerlarni olgan. Buxoro amirligi tarkibida asosan hozirgi Markaziy O'rtadagi eng ko'p millatlar vakillari istiqomat qilishgan. Amirlikda etnolingvistik bo'linish bo'lgan, bu yerda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy etnik nusxalar, guruxlar, shuningdek forsiy-turkiyzabon o'troq aholi guruhlari yashagan. Bulardan tashqari, yana bir necha yarim mustaqil bo'linmalar ham bo'lgan. Masalan, Orol bo'linmasi, bu yerda navbati bilan turkman, qoroq va qoraqalpoq xonlari hukmronlik qilgan.

XIX asrning oxirlarida Markaziy O'rtaqo'rg'on mintaqasi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan edi. Shu davrdan boshlab mintaqa hatto geosiyosat doirasiga tortiladi, uning tarixi o'rganga surib

qoyiladi va u siyosatning qurboniga aylanadi, desak mubolaga bolmas. Ayan shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoga asta-sekin Yevropa madaniyati, ta'limi kirib keladi, industrial munosabatlarning yangi ochoqlari vujudga kela boshlaydi.

Shuni ham tan olish kerakki, Rossiya hukmronligi davrida ehor ma'muriyati ozining mintaqadagi olib borayotgan siyosatida aholiga nisbatan ular ni bir-biridan ajratish, ularni urug-lashtirish usuliga tayangan. Markaziy Osiyo xalqlarini farqlash asosida ular, birinchi navbatda, konfessiyalar, undan keyin xoyalik, madaniy va etnik omillarni qoyishgan. Ma'lum darajada bu mintaqaning osha davrdagi haqiqiy tarixiy rivojlanish darajasini aks etgan deso ham boladi.

Rossiyadagi inqilobdan keyin va Markaziy Osiyodagi fuqarolik urushi davomida bolshevikler rahbariyati Turkistonni R.SFSR tarkibidagi yagona, litta avtonom okrugga birlashtirmoqchi bolishdi. 1918-yilning aprelida

„Turkiston sovet sotsialistik respublikasi to'g'risida"gi nizom qabul qilindi. Unga ko'ra, „Turkiston respublikasi tarkibiga geografik chegarasiga asosan butun Turkiston davlati kiradi. Buxoro va Xiva bundan mustasno edi"[1] Bu yerda sovetlar rahbariyati sobiq Turkiston general-gubernatorligini nazarda tutishgan.

1924-yilda bolsheviklarning milliy siyosatiga ko'ra, SSSRning milliy davlat chegaralanishi boshlandi. „1924 yilning sentabr oyida Turkiston ASSR M.Q.Q. „chegaralanish to'g'risida"gi qaror qabul qildi, unga ko'ra, o'zbek, qirg'iz, qora qirg'iz va tojik xalqlariga milliy davlatlar tuzish uchun huquq beriladi. Bundan keyin bu qarorni tasdiqlaydigan bir nechta qarorlar chiqarilgan"[2]. O'zbek va turkman xalqlariga SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublikalar sifatida kirish uchun imkoniyat berildi, Qorog'iston esa Turkiston ASSRning qoroq viloyatlari bilan birlashib avtonomiya sifatida R.S.F.S.R tarkibiga kiritish taklif etildi

---

[1] O'zbekistonning yangi tarixi 3 tom T.: „Sharq", 1998, 135-140 betlar.

[2] O'zbekistonning yangi tarixi. 3 tom. T.: „Sharq". 1998. 140-146-betlar.

va tojiklarga O'zbekiston SSR tarkibida avtonom viloyat tuzish taklif qilindi.

1929-yilda Tojikistonga ittifoqdosh respublika statusi berildi. 1936-yilda Qozog'iston va Qirg'iziston ham ittifoqdosh respublikalar statusini olganlaridan keyin huquqiy jihatdan Markaziy Osiyo xalqlarini hududiy „davlatchiligi" belgilandi.

„Markaziy Osiyo davlatlarining hozirgi tuzilishi va ularning rivojlanishi SSSR davrida shakllanganligi tabiiy hol. Markaziy Osiyo bundan keyingi davrlarda doimiy ravishda jahon siyosatining asosiy e'tibori qaratilgan hududlardan biri bo'lib qolavergan. Lekin bu yerda biz asosiy e'tiborni qaratishimiz lozim bo'lgan jihat — bu mintaqaning chet el istilochilari tomonidan yaxlit holda bosilganligi masalasidir.

Xullas, Markaziy Osiyo mintaqasi turli davrlarda turlicha nomlangan bo'lishiga qaramasdan, bu yerda yashab kelgan va hozirda beshta mustaqil davlatlarga bo'lingan xalqlar uchun umumiy vatan bo'lgan."[1]

---

1 O'zbekiston tarixi. T.: „Sharq", 1998. 201-200 bitlar.

Xullas, 1991-yilda mustaqil bolgan yosh Markaziy Osiyo davlatlari tashqi dunyo bilan yangi turdagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy munosabatlar tizimini yolga qoyishdan oldin, davlatda ichki siyosiy barqarorlikni ushlab turish va mustaqillikning huquqiy asoslarini yaratish masalalariga etibor berishlari kerak edi. Shundan keyin davlat ichki siyosatidan kelib chiqqan holda tashqi siyosatdagi ustuvor yonalishlarni belgilashlari lozim boldi.

Mintaqa davlatlarida 1991-1993-yillarni davlat qurilishi yolida ustuvor yonalishlarni faollashishi bilan tavsiflash mumkin. MDH instituti tashkil etilganligiga qaramasdan, uning kopchilik qatnashchilari oz milliy suverenitetining iqtisodiy bazasini mustahkamlash bilan band boldilar. Bu kuzatilishi lozim bolgan xollardan biridir. Chunki yillar davomida shakllangan iqtisodiy ixtisoslashuv natijasida, Markaziy Osiyo davlatlarining sobiq Ittifoqni turli joylari da kechayotgan ishlab chiqarish tarmoqlari bilan aloqalari

uzilib qolgandi"

Bu bilan birga, vujudga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni MDH mexanizmlari orqali hal qilish hech qanday natija bermadi. Shu sababli, 1993-yilda Markaziy Osiyo davlatlarining rubl hududidan chiqishi Markaziy Osiyo davlatlari oldiga yangi mintaqaviy munosabatlar tizimini izchil ishlab chiqish masalasini kündalang qilib qöydi. Xalqaro ekspertlar fikricha, Markaziy Osiyo rahbarlari tomonidan öz milliy manfaatlarini aniqlash borasida hech kim bunday tezkorlikni kutmagandi. Bunday integratsion tashabbuslar, iqtisodiy aloqalarning buzilishi natijasida bölayotgan tashqi zarbalar kuchini yöqotish uchun qöllandi.

Bu vaqtda mintaqada yana bir nechta tendensiyalar kesishib turardi. Biz tomondan, sobiq ittifoq hududidagi dezintegratsiyaning davom etayotganligi, ikkinchi tomondan, mintaqaning geografik jihatdan bir-biriga tabiiy tutashligi va umumiy iqtisodiy xoslikleri bog'liqligi masala-

---

= Бобас В., Центральная Азия: проблемы постсоветской интеграции // Центральная Азия и Кавказ – 1997.2.. – № 3 с.36.

sidir. Bu ikki muhim omil Markaziy Osiyo da mintaqaviy integratsiya sari bolgan intilishning asosi boldi. va davlatlarning iqtisodiy, siyosiy xavfsizlikka bolgan ehtiyojlarga javob berardi. Bunday boriga xoslik Markaziy Osiyodagi integratsion uyushmaga ajoyib muhitni yaratib berdi."[1]

„Tashqi va ichki ozaro boglovchi omillarning butun bir guruhi integratsion birlashmaning hosil qilishga muhim sabab boldi. Ular qatorida quyidagilarni ajratib korsatishimiz mumkin:

- integratsion birlashmani hosil qilishga qulay geografik joylashuv;
- mintaqada yashovchi xalqlarning tarixiy - madaniy yaqinligi, aholining asosiy qismi islom diniga mansubligi;
- mintaqada davlatlarning yuqori darajada ozaro boglig bolishi.
- yakona ekosistemaning mavjudligi;
- mintaqada davlatlarning barchasi deyarli bir xil bolgan davlat turilmasiga va davlat institutlariga ega bolish;
- har bir davlat hududida boshqa davlatga tegishli bolgan anklav va

hududlarning mavjudligi;

- mintaqa davlatlari xavfsizligiga ta'sir qiluvchi tashqi destruktiv kuchlarning faollashuviga qarshi kurash muammosi;
- o'sib borayotgan markobiznes, terrorizm xavfi ostida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari va hokazolar"[1]

Shunik takidlash kerakki, Markaziy Osiyo davlatlari islom hamjamiyatiga qabul qilingan bolsa ham, bu yerda islom dini asosiy siyosiy kuchga aylanmadi. Mintaqa davlatlarida islomning siyosiylashuviga salbiy kurashlarning qat'iyligini e'tiborga oladigan bolsak, mintaqada islomning radikallashuviga qarshi bolgan zarakatlar ham birlashishni taqaro etadi.

Oziga xos sotsiolingvistik integrator sifatida — rus tilini ham korsatish mumkin, chunki u bareha Markaziy Osiyo davlatlarida juda keng tarqalgan hisoblanadi. Shuningdik, rus tili Markaziy Osiyo ittifoqi integratsion institutlarining ish tili hisoblanadi.

---

[1] Жакшенкулов. О роли Запада в Центральноазиатском регионе — Центральная Азия и Кавказ // общ-полит. Журнал №2 (3) 2000г. с45.

Bugungi kunda mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar asosida davlatlarning geosiyosiy aloqalarining o'rni kattadir.

Markaziy Osiyo davlatlarining jahon kommunikatsiya tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqa olmasliklari ham mintaqa davlatlari o'rtasida ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga undamoqda.

„Mintaqa davlatlarining hamkorligini yuqori pog'onaga ko'tarish va integratsiya jarayonini amalga oshirishga undovchi yana bir sabab — bu mintaqaning gidroresurslaridir. Tarix taqaroni bilan daryolarning o'zani bir davlat hududida, irmog'i boshqa davlat hududida joylashib qolgan. Davlatlarda suv resurslarini yetishmasligi muammosining hal etilishini faqat yaqin kooperatsiya natijasida erishish mumkin.

Yuqorida ko'rsatilganlar bilan birga, mintaqadagi beshta davlat bugun xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektlari ekanligini ham esdan chiqarmasligimiz zarur. Shunday ekan, ular mustaqil davlat sifatida o'z milliy manfaatlari tizimiga egadirlar. Aynan shu omil jahon to'g'risida bo'lganidek, mintaqa

davlatlari ortasida ham olib borilayotgan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda raqobatdoshlikni taqozo etadi"[1]

O'zbekistonga mustaqil rivojlanish yolining eng boshidan to hozirgi kungacha har qanday integratsion rejalarga ehtiyotkorlik bilan yondashib, ularni davlat manfaatlariga moyil kelishini tahlil qilib kelmoqda. Umuman olib qaraganda, integratsion jarayonlarga nisbatan O'zbekistonning tutgan pozitsiyasini Prezidentimiz I. Karimov quyidagicha izohlaydi:

„...Birinchidan, integratsion jarayonlarda barcha teng huquqli ishtirokchi sifatida va o'z ixtiyorlari bilan qatnashmoqlari lozim. Ikkinchidan, barcha davlatlar deyarli bir xil huquqiy baraga va bir xil rivojlanish strategiyasiga ega bolishlari kerak. Uchinchidan, hech bir davlat boshqalar hisobiga kun kechirmasligi lozim. To'rtinchidan, integratsion jarayonlarni zo'raki ravishda jadallashtirish mumkin emas, chunki bu xavflidir. Beshinchidan integratsion jarayonlar har qanday mafkuradan holi bolishlari

darkor"[1]

Hozirgi kunda barcha mintaqaviy jarayonlarda O'zbekistonning o'rni kuchaymoqda. Bu nafaqat mintaqa davlatlari, balki jahonning bir qator yetakchi davlatlari tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Bizning cha bu bir qator quyidagi omillar bilan bevosita bog'liq:

Birinchidan, O'zbekiston o'zini geografik joylashuvi jihatidan nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun Yevrosiyoning markazida joylashgan.

Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqil energetik va xomashyo zaxiralariga ega bo'lib, bu yerda katta insoniy va intellektual potensial mavjud.

Uchinchidan, eng asosiy geosiyosiy omil — O'zbekiston mintaqada Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bilan chegaradosh bo'lgan yagona davlat.

Bundan tashqari, Afg'oniston va Tojikistondagi mavjud bo'lgan qaltis vaziyatlarda Toshkent harbiy — siyosiy jihatdan Markaziy Osiyoning kuch markaziga aylandi.

---

[1] Karimov I.A. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida so'zlagan nutq // Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.: O'zbekiston. T.: O'zbekiston - 2001.

va mintaqaviy kuchlar ortasida bitga xos balans vazifasini otayapti. Bu borada Osbekiston, AQSh, Yaponiya singari yetakchi davlatlarning strategik sheriqiga aylandi.

Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarning ishtirokchisi Qirg'iziston uchun mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tizimida qatnashish strategik ahamiyatga ega.

Bizningcha, geoiqtisodiy va geosiyosiy tomondan Qirg'iziston mintaqada Osbekiston va Qozog'istonga ma'lum darajada qaram bolib qolgan. Buni tushungan holda Qirg'iziston Prezidenti A.Akayev Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotidan tashqari boshqa mintaqaviy integratsion guruhlarga qatnashishga harakat qilmoqda. Amalda ue qayerda Qozog'iston bolsa, osha yerda Qirg'iziston ham qatnashyapti.

Qozoq ekspertlarining fikricha rasmiy Bishkek siyosati Astana siyosati yondalishiga kirib qolgan. Haqiqatan ham Qirg'iziston va Qozog'iston sobiq Ittifoq makonida mavjud bir qator integratsion uyushmalarning barchasida ishtirok etib kelmoqdalar. Yana bir muloxaza, rasmiy

Bishkekning mintaqaviy munosabatlarda Astana bilan hamfikrligi uning O'zbekistondan siyosiy jihatdan chóchib turgan bólishi mumkinligi bilan ham izohlasa bóladi. Chunki Qirg'iziston janubidagi kóp sonli o'zbek diasporasining mavjudligini Bishkekning strategiyasiga ancha ta'sir kórsatyapti.

O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyevning qóshni respublikalar Prezidentlari bilan olib borgan muzokaralari mazkur masalaning ijobiy hal etish imkonini bermoqda.

Ta'kidlash kerakki, „Bishkek O'zbekiston va Qozog'iston bilan bólgan aloqalarida hech qanday noqulaylik sezmayapti. Masalan Qirg'iziston – Qozog'iston chegarasi ikki xalqni taraqalgan hududini aniq belgilab bergan. Qirg'izlar asosan Tyan-shan tog'laridagi hududlarni egallagan bólsalar, qozoqlarning kópchiligi dashtliklarda ostiqomat qilishadi. Shuningdek, hozirgi kunda Qozog'iston demografik bosimni va hudud yetmayotganligini sezmayotganligi sababli bu ikki davlat o'rtasida etno hududiy mojarolar kelib chiqish ehtimoli juda past.

Turkmanistonning integratsion jarayonlarga bolgan ozigo xos munosabatini Markaziy Osiyoning qolgan davlatlari bilan iqtisodiy boglikni suymaygoganidan deb tushinish mumkin. Bundan tashqari, davlat hududida neft va gazning strategik zo-xiralari joylashganligi, bu davlatni avtonom rovishda faoliyat korsatishga va integratsion munosabatlarda juda kam qatnashishga sabab bolmoqda.

Gurbanguli Berdimuhammedov doim integratsion tasholabbuslarga keskin qarab kelgan. Chunki u mintaqadagi bu harakatlarni Turkmanistonda vujudga kelgan avtarkiya tuzumiga nisbatan tahdid deb hisoblayda. Ashqabat „ijobiy bitaraflik" siyosatini elon qilib Osining ichki siyosatidagi avtoritarizmni yashirmoqchi bolmoqda."[1]

Umuman olganda, kelajakda Turkmaniston ni ham MDH ga qoshilishi mumkin. Ammo hozirgi kunda bu davlat mintaqaviy integratsiyadan ancha yiroqlashyapti.

Tojikistonda Markaziy Osiyodagi integratsiyaga qatnashish uchun hatta qizqish bor edi. Qirqiziston va Qozoqiston ham

---

1 Лимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов – Т.: "Шарк" 2005.

Markaziy Osiyo hamjamiyati tashkil topganidan boshlab bunga rozi edilar. Biroq Tojikistondagi mojarolarning butun Markaziy Osiyoga tarqalishi xavfi davlatning zohiriy istaklarini ma'lum vaqt chegaralab keldi.

Diniy ekstremizmning ichki va tashqi tahdidi rasmiy Dushanbega O'zbekiston bilan ortadagi munosabatlarini muvofiqlashtirishga majbur etdi. Ekspertlar fikricha, „boshqacha taktikani tanlagan Toshkent Dushanbeni Markaziy Osiyo institutlariga qo'shilishga rozilik berdi." 1998-yil mart oyida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorligi tashkilotining davlat boshliqlari uchrashuvida Dushanbega turli xil integratsion loyihalarga qo'shilishga ruxsat berildi.

Xullas yuqorida bildirilgan mulohozalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mintaqada davlatlararo integratsiyani amalga oshirish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar mavjuddir. Lekin hozirgi kunda mintaqadagi vaziyat meyoriy yo'nalishga ega emas, Nigahi mintaqadagi integratsion jarayonlar barcha davlatlarning egallagan pozitsiyalariga va qarashlariga bevosita bog'liq bo'ladi va ularga tayanadi.

Agar bunday vaziyatda ular o'z manfaatlarining kelishuv joylarini puxta o'ylab o'zaro kelishsalar, mintaqadagi integratsion jarayonlar tarixiy taraqqiyotida yana bir bosqichga ko'tariladi. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan Qirg'iziston va Tojikistonning ham mintaqaviy integratsion jarayondagi ishtirokda „o'zlarini chetga tortishi" yaxshi natijalarni bermaydi.

II. Bob. Globallashuv jarayonida Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash muammolari.

2.1. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiyaning yuzaga kelishidagi muammo va yechimlar.

Umuman olganda, mintaqaviy integratsiya jarayonlari, keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalariga xos bolgan holat bolib qoldi. Bunga misol qilib Europa qit'asidagi, Shimoliy Amerika, Osiyo va Tinch okeani, shuningdek boshqa mintaqalardagi integratsion jarayonlarni keltirib otish mumkindir. Ushbu tendensiya Markaziy Osiyo davlatlarini ham chetlab otmadi va bu yerdagi integratsiya jarayonlari jahon iqtisodiy va siyosiy maydonida saqlanib qolishning toboro murakkablashib borayotgan shart-sharoitlarga ushbu mamlakatlarning javobini aks ettirar edi.

Ozodq siyosatshunosi U. Xasenov fikricha, mintaqa ichidagi ozaro siyosiy integratsiya alohida davlatlarning suverenitetini mustahkamlaydi. Jumladan u „Markaziy Osiyoda davlat suverenitetining mustah-

hamlanishi sobiq respublikalarning rivojlanishlari ular ortasidagi davlatlararo integratsiya bilan birgalikda olib borilsagina mumkin bo'ladi. Markaziy Osiyo integratsiyasi va siyosiy muvofiqlashtirish muassasalarining samarali faoliyati har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga imkon beradi. va shu bilan bir vaqtda ular ortasida mavjud bo'lgan va vujudga kelish ehtimoli bor bo'lgan qarama-qarshiliklarni hal etishga sharoit yaratadi"[1] – degan edi.

Aynan shu sababli, mintaqadagi davlat rahbarlari mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatlari har tomonlama rivojlanishi uchun qulay sharoit shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgiladilar. Bu borada mintaqada davlatlar tashqi siyosatda hoprektorlik uslubini, milliy davlatchilikni shakllantirishda koppartiyaviylikka asoslangan demokratik prinsiplarni va iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan turli ko'rinishdagi modellarni tanladilar.

---

1 Касенов У.А. Безопасность Центральной Азии: национальные, региональные и глобальные проблемы. Алматы. 1998 г.

, Markaziy Osiyo davlatlari turli xalqaro tashkilotlar, yetakchi davlatlar bilan ikki-yoqlama va ko'pyoqlama usulidagi siyosiy va savdo – iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashmoqda. Xususan, mintaqa respublikalarining barchasi BMT, EXXT, MDH, ŞHT, EKO kabi xalqaro tashkilotlar aro'sidir.

Bundan tashqari, mintaqa davlatlari tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida siyosiy iqtisodiy sohalarini qamrab oluvchi mintaqaviy tashkilotlarni yaratishga katta e'tibor qaratdilar. Bu borada ularning faoliyatini ikki bosqichga bo'lish mumkin bo'ladi:

Birinchisi, 2001 yil o'rtalaridan 2004-yil iyuligacha bo'lgan davr. Bu davrda Markaziy Osiyo davlatlari mintaqa ichida iqtisodiy hamkorlik harakatlarini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish mexanizmini shakllantirish bo'yicha ishlarni boshlashdi. 2003-yil yanvarida Qirg'iziston va O'zbekiston yagona iqtisodiy makonni yaratish haqidagi shartnomani imzolashdi. O'radan bir oy o'tgach shu shartnomaga Qozog'iston ham qo'shildi va 2010 yil 30-aprelda

Cholponotada (Qirg'iston) Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iston davlat rahbarlari uch davlat o'rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish to'g'risida shartnoma imzolashdi"[1]

Shundan keyingi yillarda integratsiya jarayonlarni rivojlanishning eng muhim dastagi Qozog'iston va Qirg'iston davlat rahbarlari, Qirg'iston respublikalarining Davlatlararo kengashi bolib qoldi. Davlatlararo kengash arolari dastlabki paytdan boshlab o'z maqsadlari haqida e'lon qilishdi. ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, huquqiy, harbiy va boshqa sohalarda yaqindan hamkorlik qilish, mintaqaviy va xalqaro darajadagi tashqi siyosiy faoliyat sohasida bir-biri bilan kelishgan holda harakat qilish. Lekin ushbu e'lon qilingan maqsadlarning barchasiga ham erishildi deb tola aytib bolmaydi.

1994-yil iyulidan mintaqa davlatlarining o'zaro yaqinlashuvida ikkinchi bosqich boshlanadi. Xuddi o'sha paytda, ya'ni 1994-yil iyulidan bolib turgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Almoto

---

[1] Кушкунбаев С. Центрально-Азиатская интеграция в контексте истории и геополитики. „Время N.O" www.globe.rs.

sammitida „Markaziy Osiyo ittifoqi"ning tuzilishi e'lon qilingan edi. Shunday qilib mintaqada umumiy aholi 50 mln ga yaqin bolib, ulkan hududga va salmoqli miqdordagi resurs salohiyatiga ega bolgan yadro vujudga kelgan. Bunga mintaqa davlatlaridan o'zining betaraflik mavqeyida qatiy turgan Turkmaniston va o'sha paytda fuqarolar urushi girdobida bolgan Tojikiston kirmadi.

„Keyingi yillarda ham mintaqadagi uch davlat o'rtasida o'zaro integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida doimiy ish olib borildi. Buning natijasi o'laroq 2005-yil 10-yanvarida Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) a'zolari ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'zaro „Abadiy do'stlik to'g'risida" shartnoma imzoladilar. Keyinchalik esa, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat boshliqlarining 2015-yil 27-27-dekabrda Toshkentda e'lon qilingan Qo'shma bayonida esa Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamdo'stligini Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkilotiga o'zgartirish to'g'risida qaror qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad integratsiya jarayonlarini qamrab oluvchi sohalarini yanada kengaytirish va ushbu

jarayonlarni yanada chuqurlashishini tamin-lashdan iborat edi. 2016-yil 28-fevralda Almo-ta shahrida tört mamlakat prezidentlari Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkilotini ta-sis etish to'g'risida shartnoma imzoladilar."[1]

Shu bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi integration jarayonlarga Turkmanistondan tashqari mintaqaning barcha davlatlari jalb etildi. Turkmaniston esa mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mintaqadagi hamkorlari bilan munosabatlarda anchaginа o'rni ehtiyot tortish siyosatini yurita boshladi. Turkmanistonning bunday faoliyat yuritishga olib kelgan bir qator omillar mavjud. Ushbu respublika sobiq ittifoqdan aholi soniga nisbatan birmuncha juda kat ta hududni meros qilib oldi. Bundan tash-qari bu hudud tabiiy qazilma boyliklari bolgan /neft va gaz bo'yicha katta zahiralarga ham ega. Shu boisdan ham mamlakat rahbariyati rivojlanishda bita-raflik siyosatini qabul qilib, eron bilan hamkorlik qilishni afzal kordi.

Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan

---

1 Исмагомбетов Т. Структурирование нового геополитического пространства Евразийской Азии: региональные особенности и перспективы // Азия и Кавказ 2016 г.

davlatlararo integratsiya jarayoniga o'z siyosiy ta'sirini o'tkazib kelayotgan M.D.H tashkilotini ko'ratishimiz mumkin. Hammamizga ma'lumki, M.D.H darajasidagi integratsion harakatlar o'z natijasiga erishmay qoldi. Chunki, ba'zi davlatlar MDHni oldingi ittifoq boshqaruvining nomi o'zgargan shakli sifatida qabul qilib uning faoliyatida faqat nomigagina qatnashardilar. Shuningdek, mustaqil davlatlar uchun dastlabki davrlarda o'z mustaqilliklarini mustahkamlash, jamiyatdagi tub o'zgarishlar yuz berayotgan bir paytda, o'z davlat yaxlitligini saqlab qolish, jamiyat barqarorligini ta'minlash yo'lsidan juda o'g'ir muammolarni hal qilishlarga to'g'ri keldi. Shunday sharoitda yangi mustaqil davlatlar uchun nafaqat iqtisodiy, balki boshqa sohalarda ham o'zaro hamkorlik juda zarur edi.

Bular bilan bir qatorda, mintaqaga turli yo'nalishdagi ekstremistik kuchlarning nigohi qaratilishi bilan birga, ba'zi chet davlatlar ham bu yerdagi faoliyatlarini ancha jonlantira boshladilar. Bundan tashqari mintaqa bir necha yillardan bri bevosita jangovar harakatlar tinmayotgan

notinch Afg'oniston bilan bevosita janubiy qo'shni bo'lib, u yerdagi mojarolar agar o'z vaqtida o'ldirilmasa Markaziy Osiyo ga ham ko'chib o'tishi ehtimoli ham bor edi. Shuning uchun mintaqa mamlakatlari ayniqsa O'zbekiston, xavfsizlik masalasi bo'yicha MDH davlatlari o'zaro hamkorliklarini yuqori pog'onaga ko'tarish zarurligini ta'kidlashgan edi."

Bu harakatlar natijasida 2012-yil 15-mayda Toshkentda MDHning o'ta ishtirokchisi (Armaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston) o'rtasida kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma imzolangan edi. Keyinroq 1993-yildan ular safiga Eruziya va O'zarbayjon qo'shildi. Lekin bu tuzilmaning ishtirokchi davlatlarning xavfsizligini ta'minlash borasidagi samarasi uchalik ham ko'rinmadi. Asta-sekin u bo'sh davlatlarning boshqa davlatlarga o'z to'siqlarini o'tkazish mexanizmiga aylana bordi. Bunday qarama-qarshilikning mavjudligi natijasida 2013-yilga kelib O'zbekiston bu tuzilmadan chiqqanligini bildirdi. Markaziy Osiyoning Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlari bugungi kunda

ushbu tashkilot a'zolari hisoblanishadi.

Mintaqa davlatlarining hududiy xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan boshqa bir faoliyatlari ShHT doirasida bo'lib o'tilmoqda. 1996-yilda Rossiya, XXR, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston o'rtasida Shanxaydagi imzolangan chegara yaqinida harbiy sohada o'zaro ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi kelishuvlari orqali asos solingan edi. Keyinchalik bu uyushmaga O'zbekiston ham qo'shildi va 2001-yil 6-iyunda Shanxay shahrida bo'lib o'tgan 6 davlat (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Xitoy, Tojikiston va O'zbekiston) rahbarlari uchrashuvida „Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" tashkil etilganligi to'g'risida deklaratsiya imzolandi.

Yuqorida keltirib o'tganlardan tashqari mintaqa davlatlaridan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston yana bir turlma – Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi integratsiya jarayonlarining faol ishtirokchilari hisoblanishadi. Bu holat bevosita Markaziy Osiyo davlatlarini mintaqaviy integratsiyadan chalg'ituvchi omil bilmoqda.

Shuni ham esdan chiqarmasligimiz kerakki, Markaziy Osiyo geografik

jihatdan okeanlar va qirg'oqbo'yi davlatlaridan uzoqda joylashganligi uni global muammolardan chetda qolishiga sharoit yaratmaydi. Markaziy Osiyo bir vaqtning o'zida Yevrosiyodagi O'rta Sharq, Osiyo-Tinch okeani Janubiy Osiyo hamda Yevropa kabi minta qalarning geosiyosiy omili hisoblanadi. Mintaqa tabiiy geosiyosiy chegaralarga ega bu bir tomondan Rossiya va Xitoy o'rtasida „siqilib" qolganligi, ikkinchi tomondan janubda musulmon davlatlar bilan chegaradoshligi.

XX asr oxirlariga kelib dunyo siyosiy tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar va Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi natijasida, bu makon bir qator yetakchi davlatlar e'tiborini o'ziga qaratdi. 90-yillarning boshlarida siyosatshunoslar tomonidan bu hududda „katta o'yin"ning qayta jonlanishi bashorat qilina boshlandi. Yangicha talqindagi „o'yin"ning ishtirokchilari sifatida esa AQSh, Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, shuningdek, Turkiya, Eron, Pokiston va Hindistonlarning qatnashuvi ta'kidlab o'tildi.

Markaziy Osiyo mintaqasining tabiiy qazilma boyliklarining hatta zaxiralariga ega ekanligi va hududning geostrategik jihatdan joylashgan o'rni yuqoridagi davlatlarni ushbu mintaqadagi jarayonlarga ishtirok etish istagini yanada oshirib yuborardi.

Chunki yuqorida keltirib o'tilgan davlatlarning asosiy maqsadlari geosiyosiy tomondan Yevrosiyoning markaziy qismi ustidan nazorat qilish bo'lsa, geoiqtisodiy jihatdan esa mintaqaning resurslari va transport aloqalari ustidan nazoratni o'rnatish hisoblanadi. Mintaqada yuzaga kelayotgan navbatdagi „katta o'yin" nafaqat ishtirokchilarining sonini oshganligi bilan, balki ularning bu o'yindan ko'zlagan maqsadlarining turli tumanligi bilan ham ajralib turadi. Yana bir farq yangi o'yinda qayridir jihatlar bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqalarining o'zlari ham ishtirokchi sifatida qatnashayotganlarida ko'rinadi, vaholanki ilgarigi ikki davrda bunday holat ko'zga tashlanmagan.

AQSh bu mintaqada o'z manfaatlariga ega bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Sobiq Ittifoqining parchalanib ketishi natijasi-

-da AQSh nino mintaqaga kirib kelishiga o'ringa xos yil ochib berildi. Ma'lumki, amerikalik siyosatshunos Z.Bzezinskiy Markaziy Osiyo mintaqasini mojarolarga moyil hududlardan biri sifatida e'tirof etgan edi. va, shu munosabat bilan bu mintaqani „Eurosiyo Bolkoni" deb atagan.

Ikki qutbli tizimidan keyingi davrda AQSh butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga o'zini mas'ul hisoblamoqda va shu jihatdan ham u mintaqada AQSh boshqaruvidagi siyosiy barqarorlikning o'rnatilishidan manfaatdordir. Shuningdek, mintaqa davlatlari diniy ekstremizmning nishoniga aylanishi va bu davlatlarning keyingi rivojlanishida diniy yo'nalishning tanlanishi ham AQSh manfaatlariga zid'dir. Aksincha, u mintaqada davlatlarning diniy ekstremizmning kuch to'qolishiga to'siq bo'luvchi kuchga aylanishi tarafdoridir. Bu bilan birga AQSh Markaziy Osiyoni bir qator yirik davlatlar bilan iqtisodiy va ijtimoiy aloqalari o'rib borayotgan muhim strategik mintaqa sifatida ham qaraydi.

„AQSh rasmiy vakillari hopekilik chiqishlarida bu davlatning Markaziy Osiyo

mintaqasidagi manfaatlari quyidagilarga mujassamlashtirib, keng jamoatchilik ongiga singdirishga harakat qilishmoqda:

1) mintaqada demokratik siyosiy muassasalarini barpo etish.
2) mintaqada iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish maqsadida bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish.
3) Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari ortasida mintaqaviy hamkorlikni va ularning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini rivojlantirish.
4) xalqaro soharida, terrorizm va narkotiklar savdosi bilan kurash borasida samarali siyosat o'tkazish.

Ushbu yo'nalishlarni shartli ravishda hozirgi kunda AQSh rahbariyatining Markaziy Osiyoga nisbatan strategik loyihasi sifatida qarash mumkin. Lekin Z.Breginskiy bu borada quyidagicha fikr bildirgan: „Qo'shma Shtatlar hozirgi kuna Yevrosiyoning yangi davlatlarida o'z siyosiy ishtirokini kengaytirish harakatida bo'lsalarda, biroq bu davlat Markaziy Osiyoda xal qiluvchi rolni o'ynay olmaydi"[1]

---

1 Бженский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы - М.: Международные отношения. 1999 г.

Hozirgi kunda AQSh markaziy osiyo davlatlarining iqtisodiy nochorligidan foydalangan holda mintaqani iloji boricha o'zining nazorati ostiga olishga harakat qilmoqda. Shuni aytish mumkinki, ularning bunday harakatlari o'z natijalarini bermoqda.

Oxirgi paytda Markaziy Osiyo mintaqasi Xitoy uchun strategik ahamiyatga ega hudud sifatida qaraladi. Lekin bazi bir Xitoy olimlari „Xitoy Markaziy Osiyosiz, bu mintaqa esa Xitoysiz mavjud bololmaydi" va „Markaziy Osiyo mamlakatlari Xitoyning yordamisiz va qollab quvatlashisiz o'z xavfsizliklarini to'minlay olmaydi" degan fikrlarni o'rtaga tashlaganlar"[1] Markaziy Osiyodagi barqarorlik Xitoy manfaatlariga tolo mos kelishi bir qancha tahlilchilar tomonidan qayd etib o'tilgan. Ular bu hududdagi beqaror vaziyat Xitoyga ham ko'chib o'tishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratishadi va Xitoy mintaqa davlatlariga har tomonlama yordam ko'rsatishi zarurligi ta'kidlanadi.

Xitoy bu hududda Rossiya ta'sirining rolini tan olsada, bu yerda G'arbning ishtiroki unga biroz noqulaylik tug'diruvchi

---

1 Алимов К.М. Центральная Азия: Обострение интересов Т.: Шарк, 2005 г.

omil hisoblanadi.

Chunki mintaqa Xitoyning eng beqaror hududi — Sindzyan — Uyg'ur Avtonom Rayoni bilan bevosita qo'shni bo'lib, u yerda Xitoyga raqib hisoblanuvchi biror bir kuchning mavjud bo'lishi, uning manfaatlariga mos kelmaydi.

Bugungi kunda Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan aloqalarni har tomonlama chuqurlashtirishga intilayotganligini kuzatish mumkin. Bu yerda uning iqtisodiy manfaatlarini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, albatta. Markaziy Osiyo Xitoy uchun energiya resurlari manbai, o'z mahsulotlarini sotishi uchun bozor, shuningdek, G'arb bilan aloqalarini olib borishda muhim transport yo'li sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, davlatlararo integratsiya tez fursatda yakun topishi Pekinning bu manfaatlarini realizatsiya qilishda juda qo'l keladi.

Xitoy hukumatining barcha rasmiy hujjatlarda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlariga nisbatan teng va do'stona munosabat bildirilsada, Pekin tomondan ushbu respublikalarga nisbatan tabaqalanish tendensiyasi ko'zga tashlanadi.

siyosiy va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat beriladigan „ustuvor davlatlar" va kerakliche rasmiy aloqalar darajasini ushlab turadigan „ikkinchi eshelon" respublikalariga ajratish paydo bolgan. Birinchi guruhga Xitoy bilan umumiy davlat chegarasiga ega bolgan Qozoqiston Tojikiston va Qirgiziston lar kiradi.

Eron Islom Respublikasi bu yerda kechayotgan integratsion jarayonlarga ös tasirini ötkazish uchun yetarliche salohiyatga ega bolgan mintaqaviy davlat deb hisoblanadi. Eron sobiq sotsialistik mafkura ingirosidan keyin paydo bolgan mafkuraviy boshliqni ösiga zor bolgan diniy mafkura bilan toldirishga intildi. Lekin uning maqsadi faqat diniy birdamlik bilangina cheklanmadi.

„Eron Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishda ISTdan keng foydalanishga harakat qilmoqda. 1992-yilda Markaziy Osiyoning barcha davlatlari bu tashkilotga a'zo bolib kirishgan. Eron rahbariyati rejasi boyicha ITT „Islomiy umumiy bozor"ni yaratishda asosiy poydevor bolishi va unda Eron mintaqaviy yetakchi rolini oynashi lozimligidan chiqib, bu

tashkilot faoliyatini siyosiylashtirishga urinган paytlar ham bolgan. Bu esa 6z navbatida tashkilotning boshqa a'zolari tomonidan e'tirozlarga sabab bolmoqda"[2]

Lekin shu bilan bir qatorda Eronning mintaqa mamlakatlari uchun dengiz kommunikatsiyalariga boglanish borasidagi ornini e'tibordan chetda qoldirib bolmaydi va shu sababdan Markaziy Osiyo davlatlari Eron bilan ozaro alaqalarni yaxshi yolga qoyishidan bevosita manfaatdordirlar.

Otgan asrning 90-yillari boshlarida bir gancha garb siyosatchilari tomonidan Turkiyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanish yoli mintaqa davlatlari uchun rivojlanishning bitta xos modeli sifatida qaralgan edi. Ularning fikricha bu mintaqa diniy fundametalizmga qarshi bitta xos qalqon vazifasini otashi lozim edi.

Turkiyaning osha paytdagi prezident Turgut Ozal Anqaraning mintaqadagi vazifalarini quyidagicha ifodalagan edi: „Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy umidlari davlat qurilishida Turkiya modelidan foydalanish bilan boglig. Albatta, Turk modeli

---

[2] Ашимбаев М. Основные задачи безопасности и направления регионального сотрудничества в Центральной Азии // Азия и Африка сегодня - 2001.

barcha davlatlar tomonidan qöllanila olmaydi. Bu modelga biz ancha ösgartirishlarni kiritish lozim böladi. Ushbu savollarni yangi mustaqil davlatlar özlari hal qilishlari lozim. Lekin, biz bunda ularga turk modeli böycha davlat sistemasini yaratishda yordam körsatishimiz mumkin[1]

Umuman olib qaraganda, Angaraning mintaqa davlatlari orasida ta'sirga ega bölish uchun kurashda imkoniyatlari ancha yuqori edi.

Birinchidan, asta sekin dinning siyosat va iqtisoddan ajratilishini naraida tutgan holda Turkiya dunyoviy rivojlanish yolini taklif qildi. Ikkinchidan, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning turkiy modeli ozining eron modeliga nisbatan bir qator afzalliklarni körsatdi. Turkiya keyingi 10 yillikda markaziy plan lashtirishdan voz kechib, erkin bozor iqtisodiyotiga ötgan edi, shuningdek Yaqin Sharq davlatlarida öz pozitsiyalarini mustahkamlashga erishdi va mintaqaning moliyaviy markazi rölige davo qilib turardi. Uchinchidan Turkiya va Markaziy Osiyo (Tojikistondan tashqari) xalqlarining etnik, til, hamda madaniy

[1] Бюрир П. Культурная динамика глобализации. В кн многомерная глобализация. Культурное разнообразие в современном мире, 2008.

diniy jihatlardan yaqinligi Angaraga mintaqada o'z geosiyosiy manfaatlarni amalga oshirishda anchagina qulayliklar tug'dirar edi.

1991-92 yillarda Turkiya va mintaqa davlatlari o'rtasida hamkorlikning uchta asosiy yo'nalishi: siyosat, iqtisod, madaniyat belgilab olindi. Bu davlatning mintaqaga kirib kelishi, eng avvalo, turizm va yengil sanoat sohalarida boshlandi. Shuyinchalik esa, Turkiyada Markaziy Osiyo uchun kadrlar tayyorlab berishga katta e'tibor qaratdi. 1994-yilning boshida Markaziy Osiyoning besh davlatidan 12 ming talaba Turkiyada ta'lim olar edi.

O'zaro munosabatlarning dastlabki bosqichida o'z manfaatlarini ilgari sura borib Angara tomonidan ushbu davlat Markaziy Osiyo xalqlari bilan tarixiy va madaniy birlikning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlanar edi. Bu bilan Turkiya yangi turkiy xalqlar dunyosida yetakchilik qilishga intilishlarini namayon qilardi. Angaraning siyosiy elitalarida „panturkizm" g'oyasi yana bahs-munozalarning asosiy mavzusiga aylanib qoldi.

Lekin kuyinchalik, ayniqsa turkiy tilga ega davlatlarning 1994-yil oktabr oyida Istambulda bolib otgan sammitidan song, Angaraning mintaqaga nisbatan bolgan siyosati ancha ozgardi. Turkiya shuni rasman elon qildiki, u „Markaziy Osiyo mintaqasining ozining manfaatlar doirasidagi region deb qaramaydi va bu yerda mintaqaviy kurash olib borish istagi ham yoq".

„Pokistonning Markaziy Osiyo mintaqasiga intilishlari avvalo uning Hindiston bilan munosabatlaridan kelib chiqadi. Bu borada „Aussenpolitik" jurnalda keltirilgan fikrga qoshilish mumkin: „Qayerdaki Pokistonning faolligi osha boshlasa, osha joyda darhol Hindiston paydo boladi va aksincha.." Yani boshqacha aytganda, Pokistonning mintaqa davlatlari bilan munosabatlarni keng yolga qoyishdan asosiy kozlangan maqsadi, strategik raqibi hisoblanmish Hindistonga qarshi turishda ozining ushbu mamlakatlar tomonidan qollanishiga erishishdan iborat.

Mintaqa davlatlarining dengiz kommunikatsiyalariga boglanishiga bolgan ehtiyojlari Pokiston bilan ozaro aloqada

rivojlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Chunki bu borada Pokiston portlari Markaziy Osiyo davlatlariga dengiz yoliga chiqishda eng qulay yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Pokiston mintaqa davlatlarini Kashmir muammosini hal qilishda o'rni qo'llab quvatlovchilar safida ko'rishni xohlaydi, shuningdek bu hududda Hindiston ta'sirining kuchayishiga yol qo'ymaslikka intilmoqda[1]

O'tgan asrning 90-yillari boshlarida Yevrosiyodagi geosiyosiy vaziyatning o'zgarishi Hindistonni Markaziy Osiyoda yangi hamkorlarni qidirishga undadi va mintaqa davlatlari bilan o'zaro munosabatlarini yuqoriroq darajaga ko'tarishga sabab bo'ldi. Umuman olib qaraganda Hindiston Markaziy Osiyo mintaqasining Eron va Pokiston manfaatlari doirasiga kiritilganligini e'tiborga olib, bu hudud ularning ta'siri ostiga tushib qolishidan umuman manfaatdor emas. Chunki ikkala davlatning ham tashqi siyosatlarida diniy omil kuchli rol o'ynaydi. Bu esa mintaqa diniy yo'nalishdagi davlatlarning qurilishi va Hindistonning Pokiston bilan

---

1 Гладкий Ю.Н. Чистобаев А.И. Основы регионалной политики. М. 1998 г.

qarama-qarshiliklardan kuchlar nisbatini uning raqibi foydasiga o'zgarishiga olib kelishi mumkin edi. Bu xavfsizlik ayniqsa 1996-yilda Afg'onistonda „Tolibon" harakatining hokimyat tepasiga kelishi natijasida yanada kuchayadi. Bunday sharoitda Hindiston rahbariyati Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaqinlashish siyosatini olib borishni maqul ko'rdi va bu boradagi faoliyatini jadallashtirdi.

Siyosiy tomondan bunga Hindiston va mintaqa davlatlarining mintaqaviy xavfsizlik jumladan xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash, shuningdek ommaviy qirg'in qurollarini kamaytirish va yo'qotish masalalari yuzasidan nuqtai nazarlarining yaqin kelishi ham imkon beradi. Bulardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, mintaqada kechayotgan davlatlararo integratsiya jarayoni to'laligicha Dehli manfaatlariga to'g'ri keladi.

Yaponiyaning tashqi siyosiy munosabatlar tizimida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan aloqalari muhim o'ringa ega.

Yaponiyaning mintaqaga nisbatan qiziqishlari ortib borishi asosida quyidagi omil yotadi: Yaponiyaning tabiiy resurslarga bolgan ehtiyoji Yaqin sharq mamlakatlariga muqobil boluvchi neft va gazga boy yangi davlatlar bilan munosabatlarini jadallashtirishga undayoli.

Shuning uchun ham Yaponiya bu mintaqada oz taasiriga ega bolish va iqtisodi uchun zarur bolgan energiya resurslarini barqaror olib turish maqsadini kozlayoli. Uning iqtisodiy jihatdan salohiyati mintaqadagi davlatlarni, ozlari uchun nihoyatda zarur hisoblanuvchi tabiiy qazilma boyliklar: neft va gazni jahon bozoriga chiqarish loyihalarini amalga oshirishda moliyaviy jihatdan qollab-quvvatlash imkonini beradi. Yaponiya Markaziy Osiyo mamlakatlarining oz energiya resurslari bilan jahon bozoriga chiqishlaridan hammadan ham koro koproq manfaatdor, bu borada ularning turli yonalishlari ham uni qoniqtiradi, chunki bu Yaponiya uchun tranzit masalasida ayrim davlatlarga bogliq bolib qolishini olini oladi. Shu bosdan ham

Markaziy Osiyodagi amalga oshiralayotgan integratsiya jarayonlari, ayniqsa transport tarmoqlarini rivojlantirish loyihalari Tokio tomonidan qollanib kelmoqda. Transport kommunikatsiyalarini shakllantirishda Yaponiya Markaziy Osiyoga bir butun yaxlitlik sifatida yondashmoqda"[1]

„Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillik ka erishganlaridan keyin Yevropa ittifoqi uchun Osiyo qit'asida strategik ahamiyat kasb eta boshladi, chunki ular kopchilik Yevropalik mutaxassislar fikricha „Yevropa uchun energetik resurslarning yangi bir manbai bolib xizmat qilishi mumkin". Mintaqada ozining iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda E.I. bu yerdagi turli ozgarishlar jarayoniga muhim ahamiyat beradi. Ham siyosiy ham iqtisodiy sabablarga kora YeI. davlatlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan umumiy siyosatni ishlab chiqish lozimligi e'tirof etilmoqda. YeI boshqarma raisi J. Pire kampaniya sozga qaraganda „YeI Osiyosiy manfaatlarning toqnashuvi bilan bogliq holda kelib chiqishi mumkin bolgan xavfni hisobga olgan

---

1 Джакшенкулов О. роли Запада в Центральноазиатском регионе Центральная Азия и Кавказ // обш полит. Журнал №1 2000г.

holda Yel mamlakatlari mintaqa davlatlarining siyosiy va iqtisodiy mustaqilliklarini mustahkamlanishidan manfaatdordirlar.[1] Bunda Yel. Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari bu yerdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishni osonlashtiradi, ichki mojaro chiqishi ehtimolini kamaytiradi, shuningdek, tashqi xavflarga samarali qarshi turish imkonini beradi. deb hisoblaydi. va davlatlarning yaqinlashish jarayonlarini qollab-quvvatlashni ozining strategik yonalishi sifatida belgilaydi.

Bulardan tashqari, ekspertlarning fikriga kora kuchli Markaziy Osiyo mintaqasi Europaga aynan Osiyo davlatlaridan kirib kelayotgan narkotik moddalarni va turli xil terroristik guruhlarni toxtatib qola oladigan ozigo xos „bufyer zonasi" vazifasini otashi mumkin.

Yuqorida keltirib otilganlardan xulosa qilib aytadigan bolsak, chet mamlakatlarning Markaziy Osiyoga bolgan qiziqishlari buyuk yoki kechagi kun bilan boglig bolibqina qolmay, uning ilolislari nihoyatda

---

[1] Джиллиньков. О роли Запада в Центральноазиатском регионе – Центральная и Евразия // Обш-полит. Журнал №2 2000г.

chuqur ekanligini his qilishimiz mumkin. Agarda mintaqada öz manfatlariga ega davlatlarni tasniflab chiqadigan bölsak ularning manfaatlari köp jihatdan bu yerning tabiiy boyliklari, muhim strategik öni bilan bog'liqligini qayd etib ötishimizga to'g'ri keladi. Yana bir ötgan xos jihat bu davlatlar manfaatlarining ba'zi bizlari bir-biriga ancha mos kelishi va aksincha bir-biriga mutlaqo zid kelishida körinadi. Bunday manfaatlar qarama-qarshiligi mintaqaning rivojlanishida ozining salbiy ta'siriga ega bolishi, bu esa mintaqa davlatlari ortasidagi ozaro munosabatlarda ham öz aksini topgan.

Shunday qilib, bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ozaro yaqinlashuvi köplab omillarning bir-biriga ta'sirlari natijasida kelib chiquvchi qarama-qarshiliklar orqali röy bermoqda. Ushbu omillar sirasiga - iqtisodiy, tarixiy-madaniy, axborot, harbiy strategik, shuningdek, turli davlatlarning ta'sirlarini kiritish mumkin.

Siyosiy dialoglarni olib borish, mintaqaviy integratsiya mexanizmlarini takomillashtirish, yagona xavfsizlik makonini shakllantirish, mintaqada tinchlik va

barqarorlikni saqlab turishga qaratilgan faoliyatni yanada rivojlantirish va boshqa bir qator muammoli masalalarning eng samarali yechimlari Markaziy Osiyoda joylashgan barcha davlatlarning yuqori darajadagi hamkorligidan kelib chiqadi.

2.2. Geoiqtisod mintaqaviy integratsiyaning muhim omili sifatida.

Ushbu masalani ko'rib chiqishda eng avvalo bir narsaga aniqlik kiritishimiz lozim. Markaziy Osiyo davlatlarining „iqtisodiy integratsiyasi" termini bir-biri bilan aloqador, lekin shu bilan birga mohiyatan turlicha bo'lgan ikkita tushunchani bildiradi.

Birinchidan, iqtisodiy integratsiya deb, ikki yoki undan ortiq davlatlar o'rtasida yagona iqtisodiy birlikni yaratish jarayoni tushiniladi. U tovarlar, odamlar, kapital va xizmatlarni erkin aylanishiga to'siqlik qiluvchi iqtisodiy va turli xildagi boshqa to'siqlarni bartaraf etishda, shuningdek davlatlarda mavjud bo'lgan xo'jalik yuritish shakli shart-sharoitlarini unifikatsiya qilishda namoyon bo'ladi. Bunday tarzda tushiniladigan integratsiya jarayoni to'liq ravishda milliy hukumatlarning harakatiga bog'liq bo'lib, subektiv harakterga ega.

Ikkinchidan, iqtisodiy integratsiya ostida mikrodaraja yani iqtisodiy operatorlar darajasida, milliy iqtisodlarning birlashib

ketish jarayoni ham tushiniladi. U savdo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida, turli davlatlarning kompaniyalari orasida korporatsiyaning o'sishi TMK larning paydo bolishida kredit va investitsiyalarning oqimida namoyon boladi. Ushbu jarayon milliy hukumatlar tomonidan qisman boshqarilib obyektiv xarakterga ega.

Bizning mintaqamizda „iqtisodiy integratsiya ostida bu ikkita holatning ham bir vaqtning ozida mavjud bolishi, yangi va mustaqil davlatchilik sharoitida hosil bolgan siyosiy va iqtisodiy vaziyat bilan asoslash mumkin.

Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy integratsiyasi tendensiyalari va istiqbollarini tahlil qilishda ozaro boglioq bolgan ikkita faktor inobatga olmoq zarur. Biz tomondan bozor iqtisodiyotiga otish sharoitida mintaqa davlatlari rivojlanish va kapital toplashda raqobatchilar sifatida qatnashib, sodir bolayotgan integratsion jarayonlarga tosiqlarni yaratdilar. Ikkinchi tomonda esa, regional birlashmalarning tashkil topishi dunyoda kechayotdan global jarayonlarda yashab qolishga, shuningdek siyosiy va iqtisodiy borliqda oz oznini topishga asos

boladi.

Shunday bir siddiyatlarga tola sharoitda sodir bolayotgan iqtisodiy integratsion jarayonlarning borishiga tosqinlik qilayotgan bir qancha faktorlarni aytish mumkin. Ekspertlarning etirof etishicha, Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisod sohalari birlashiviga quyidagi bir nechta obyektiv va subyektiv omillar tosqinlik qilmoqda.

Birinchidan, mintaqaviy integratsiya jarayoni da ishtirok etuvchi davlatlarning iqtisodiy integratsiyalarining turlicha bolishi va har xil yondaltirilganligi eng asosiy tosiq sifatida korsatilmoqda. Shu jumladan, otkarilayotgan reformalar va milliy iqtisodlar likvollashuvi tezliklarining farq qilishi xojalik alogalarining mustahkamligini keskin kamaytirib yuborgan.

Haqiqatan ham mustaqillikka erishgan paytdan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari ozining geografik joylashuvi, iqtisodiy infrastrukturam va tabiiy resurslari, shuningdek ishlab chiqarish potensialiga asoslangan holda ozining iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishni va uni realizatsiya qilmoji zarur edi. Bu borada

Qozoqiston va Qirqiziston „shokovaya terapiya" nomini olgan reformalar yolini tanladi. Bunga asosiy sabab sifatida shuni korsatishimiz mumkinki, Qozoqiston, Rossiya Federatsiyasi bilan qariyb uzunligi 7 ming km.ga teng bolgan chegaraga ega. Shu bilan bir qatorda sharqiy tomondan Xitoy bilan ham chegaradosh. Bu esa davlat ichida otkazilayotgan reformalar bevosita ushbu chegaradosh davlatlarda, ayniqsa Rossiyada otkazilayotgan iqtisodiy reformalar bilan uygunlashib ketishini talab qiladi. Ushbu yol Qirqiziston tomonidan ham tanlanishi bir tomondan bozor iqtisodiyoti sharoitiga tezroq otib olish istagi va tabiiy geografik joylashuvi bolsa, ikkinchi tomondan yetakchi davlatlarning tashqi ta'siri deb qarashimiz mumkin. Tojikiston mustaqillikning ilk kunlaridanoq siyosiy reformalarni amalga oshirishda bir qancha xatoliklarga yol qoyildi. Buning natijasida esa iqtisodiy reformalar ham inqirozga uchradi. va natijada davlat iqtisodiy tomondan nochor ahvolga tushib qoldi. Faqat fuqarolar urushidan yetkazilgan iqtisodiy zarar mutaxassislar tomonidan 7 mlrd. AQSh dollari atrofida baholan-

-moqda. Bu esa mintaqada davlatlar bilan iqtisodiy integratsiya to'g'risida samarali dialog o'tkazishga imkon bermadi. Fuqarolik urushidan so'ng Tojikiston bir muncha iqtisodiy ishga urindi, lekin 1990-yilgi Rossiyadagi moliyaviy krizis uning iqtisodiy o'sish dinamikasiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda Tojikiston SMQ davlatlaridan eng nochori hisoblanadi va ko'p tomondan xalqaro gumanitar yordamga muxtoj. Turkmaniston eng boshidan yakkahokimlik siyosatini qo'llay boshladi. Ya'ni u nafaqat iqtisodiy reformalarni o'tkazish, balki mintaqadagi boshqa davlatlar bilan ham iqtisodiy aloqalarni eng ko'p darajada kamaytirishga harakat qildi.

O'z navbatida, O'zbekiston o'zining iqtisodiy rivojlanish yolini ishlab chiqdi va bozor iqtisodiyoti sharoitiga bosqichma-bosqich o'tish strategiyasini qo'llay boshladi. Bu esa mavjud bo'lgan ishlab chiqarish obyektlarining asosiy qismi davlat qo'lida qolishi va kechayotgan reformalar bevosita davlat boshqaruvi ostida o'tishni nazarda tutar edi

Shuningdek mintaqa davlatlari strategik

rivojlanish vektori yondlishining ham turlicha bolishi iqtisodiy integratsiyaga tosqinlik yaratib kelmoqda. Jumladan, Qozoqiston, Qirgiziston, Tojikiston umiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda Rossiyaga orientatsiya qilayotgan bolsalar, Turkmaniston asosan Eron va Fors korfazi mamlakatlari bilan hamkorlikni ornatishga harakat qilyapti. Ox navbatida Ozbekiston dunyodagi barcha davlatlar bilan iqtisodiq hamkorlik aloqalarini ornatishga harakat qilda.

Yuqorida korsatilganlarning barchasi Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning quyidagi sozlarida ifoda etgan: „Biz noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar tashkiloti shafeligida otkarilgan „Markaziy Osiyo: yaqona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yolidagi hamkorlik" mavzusida yuqorida xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejalashtirganmiz. Ushbu anjuman yakunida biz BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi say-harakatlarini qollab

-quvvatlashga doir maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo'ljallaganmiz".[1]

Mintaqadagi suv resurslaridan foydalanish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar va kelishmovchiliklarni iqtisodiy integratsiyaga bevosita negativ ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Mustaqillikni qo'lga kiritgach mintaqa davlatlari barcha suv omborlari resurslarini „tabiat tomonidan berilgan umumiy boylik va ne'mat" sifatida qarab har bir foydalanishni tartibga solish uchun bir qancha regional tashkilotlarga asos soldi. 1992-yil Almati shahrida barcha davlatlarning suv xo'jaliklari vakillari ishtirokida Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish sohasida kelishilgan siyosatni olib borish to'g'risida kelishuv imzoladilar.

1994-yil 11-yanvar kuni Nukus shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari suv resurslaridan ratsional foydalanish, Orol dengizi basseynida ekologik va ratsional-iqtisodiy holatni yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar programmasini imzoladilar. 1995-yil 20-sentyabr kuni davlat rahbar-

lari Nukus deklaratsiyasini imzoladilar. Ushbu deklaratsiyada Orol dengizi bassseynida hosil bolgan ekologik krizisni bartaraf etish boyicha har biz davlatning majburiyatlari korsatilgan. 1996-yilga kelib mintaqadagi davlatlarda iqtisodiy rivojlanish boyicha tabaqalanish yuzaga keldi. Qozoqiston va Ozbekiston davlatlari Qirgizston va Tojikistonga nisbatan rivojlanish tempi boyicha ancha ilgarilab ketishdi. Bu esa „iqtisodiy bayroq" davlatlar siyosatda qolgan davlatlarga nisbatan „tepadan – pastga" qarash prinsipi aniq korga tashlana boshladi.

Buning natijasida oldin imzolangan iqtisodiy hamkorlik boyicha xujjatlar, siyosiy deklaratsiyalar e'tiborga olinmaydigan bolib qoldi yoki biz tomonlama izohlama boshlandi.

Shunday biz qiyin sharoitda Qirgiziston qattiq ishga qol urdi. 1997-yilning iyun oyida deputat T. Usubaliyevning tashabbusiga binoan Qirgiziston parlamenti „Qirgiziston suv resurslaridan Ozbekiston, Qozoqiston va Tojikiston davlatlari tomonidan foydalanish togrisida"gi savolni muhokama qi-

lishni tashkil qildi. Natijada, qabul qilingan qarorga binoan, hukumatga qo'shni davlatlarga berilayotgan suv uchun tegishli xalq o'rnatish bo'yicha topshiriq berildi.

1998- yildan Tojikiston ham, Qirg'iziston kabi, suv resurslariga o'z egalik huquqlarini bildira boshladi.

„Amudaryo va Sirdaryo daryolari havzalarining umumiy suv hajmi yiliga 115,6 mlrd m^3ni tashkil qiladi, shundan Amudaryoga tegishli – 78,4 va Sirdaryoga tegishlisi – 37,1. Amudaryo suvining 75 % Tojikiston va Afg'onistonda hosil bo'lsa, Sirdaryoning 81 % Qirg'iziston hududida hosil bo'ladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo davlatlari orasida parchalanayotgan iqtisodiy strukturani va korporativ hamkorlikni tiklash va rivojlantirish zarakatlari ilk bor 1990-yilda ya'ni SSSR ning to'liq parchalanishi va SNG tuzilishidan oldin amalga oshirila boshlagan edi. Bunda Qozog'iston tashabbusiga ko'ra Almati shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalari rahbarlari uchrashib, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik to'g'risida bitim imzoladilar.

„Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikni qōlga kiritgach hamkorlikning yangi strategik yonalishlarini ishlab chiqish dolzarb talabiga aylandi. 1994-yilning 11-yanvar kuni Qozōqiston va Ōzbekiston ōrtasida yagona iqtisodiy zonani tashkil qilish tōgrisida hujjat imzolandi. Shu yilning 4-fevral kuni ushbu shartnomaga Qirōqiziston ham qōshildi.

1994-yil 30-aprel kuni Qozōqiston, Qirōqiziston va Ōzbekiston yagona iqtisodiy zonani tashkil qilish bōyicha yagona shartnoma imzoladilar. Ushbu shartnoma uchta davlatning iqtisodiy hamkorligi uchun huquqiy asos bōldi. 1998-yil 26-mart kuni ushbu shartnomaga tōla huquqli a'zo sifatida Tojikiston ham qōshildi. Shu yilning 4-iyul kuni ushbu „tōrtlik" Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati institutini tashkil etishga qaror qildi.

Shartnomani amalga oshirish maqsadida Davlatlararo Premyer-ministrlar, Tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari hamkorlik tashkilotlari, hamda ularning ishchi organi – Ijro qiluvchi komitet tashkil qilindi"[1]

---

[1] Материалы научной региональной конференции – Душанбе 2005.

Ushbu shartnoma imzolangach kopgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlatlar Ortasida soliq, bojxona sohalarida bir xil huquqiy baza yaratishga qaratilgan hujjatlar imzolandi. Suv energetik resurslardan unumli foydalanish bo'yicha bitim tuzildi, yagona ilmiy texnologik hududni yaratish bo'yicha harakatlar amalga oshirila boshladi, aholining va ishchi kuchining migratsiyasi bo'yicha davlatlar ortasida o'zaro hamkorlik Programmasi imzolandi va boshqalar.

1994-yil 5-avgust Bishkek shahrida o'tkazilgan sammitda Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankiga asos solindi. Ta'sischilar sifatida ishtirokchi – davlatlarning hukumatlari ishtirok etishdi va boshlang'ich kapital 9 mln AQSh dollarni tashkil qildi. Ushbu bank tomonidan bir nechta investitsion proektlar moliyalash tizildi. Xususan „Saymon" energiya hisoblagich priborlarini ishlab chiqarish, „Tanar" AJ da gaz o'lchagich apparatlarini ishlab chiqarish, „Qirg'iziston elektromashinalarini qurilish zavodi" AJ da elektrdvigatellarni ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar

amalga oshirildi.

Markaziy Osiyodagi bu uch davlatning integratsiya borasidagi ilgari siljishlarga erishuvlari o'z navbatida mintaqadagi boshqa davlatlarni ham befarq qoldirmadi. va ular ham ushbu jarayonda qo'shilish istagida ekanligini bildira boshladi. Bu borada ayniqsa Tojikiston faollashdi. „Davlatlararo kengashning 1997-yil 7-yanvarda Bishkekda bo'lib o'tgan majlisida Tojikiston ham ushbu tuzilmaga a'zo-tuzeni maqomida kirganligi tasdiqlandi.

Tojikiston prezidenti E.Rahmonovning 1998-yil 4-yanvarida O'zbekistonga qilgan safari chog'ida u Tojikistonning ham MDH'ga to'la huquqli ishtirokchi sifatida kirishga qiziqayotganligi tasdiqladi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi bir-biri davlat prezidentlarining, o'sha yili 5-6-yanvarda bo'lib o'tgan Ashxobod uchrashuvida esa Tojikistonning ushbu kelishuvga qo'shilishini e'lon qildi" [1]

2002-yil 27-28-fevral kunlari Almaty shahrida o'tkazilgan uchrashuvda „Markaziy

[1] Джекшенкулов. О роли запада в Центральноазиатском регионе. Центральная Азия "Кавказ" общ-полит журнал №2. 2000г.

Osiyo hamkorligi" tashkiloti hujjatlar imzolandi. Shartnomadan tashqari MDH milliy kordinatorlari Qomitasi to'g'risida Nizom va MDH ni MDH qo aylantirish bilan bog'liq bolgan chora tadbirlar to'g'risida Qaror ham qabul qilindi"[1] MDH tashkilotining ishchi organlari sifatida quyidagilar ta'sis etildi.

- davlat rahbarlari va premyer ministlar soveti
- tashqi ishlar vazirlari soveti, shuningdek ayrim olingan soha rahbarlari sovetlari;
- milliy kordinatorlar Qomitasi.

MDH tashkilotining asosiy maqsadi va vazifalariga mintaqadagi davlatlarining iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarda hamkorligini rivojlantirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, suv resurslardan ratsional foydalanish, shuningdek, yagona soliq va bojxona tizimini yoratish bo'yicha ishlarni jadallashtirish va integratsiya jarayonlarni qamrab oluvchi sohalarni yanada kengaytirish va ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirishni ta'minlashdan iboratdir

Markaziy Osiyo Hamkorligi, asosiy iqtisodiy resurslar potensiali nuqtai nazardan

---

1 Назарбаев Н.А. Евразийский Союз; идеи, практика, перспективы – М.: Фонд содействия развитию социальных и политических наук. 1997 г. с 88.

tahlil qilinadigan bolse, bu shunaqa regionki, uning hududi 3,4 mln km³ ni tashkil etadi, bu esa G'arbiy Yevropaning hududidan ham kattaroqdir. Umumiy axoli 47 mln kishini tashkil etadi. Neft va mineral resurslarning umumiy zaxirasi Fors ko'rfazidagi bo'ri yetarchi davlatlarning zaxiralariga teng dir. Markaziy Osiyoning 90 % axoli, 80 % ishchi kuchi va 90% energetik va suv resurslari aynan Qozog'iston Qirg'iziston va O'zbekiston hududida jamlangan. Rivojlanish darligi bo'yicha ushbu birlashma sobiq SSSR hududida birinchilar qatorida o'rin olish mumkin.

Lekin shunga qaramasdan iqtisodiy integratsiya jarayoni juda sust kechayapti. Misol tariqasida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, bozga yaqin imzolangan hujjatlardan faqat 3/1 qismigina ijro qilish jarayonidadir. Bunday holatning asosiy sifatida mutaxassislar regionda investitsiyalarning kamligi va ko'pgina proektlarni amalga oshirib bolmaslik darajasida belgilangan deb ko'rsatishadi. Bundan tashqari ishtirokchi - davlatlardagi iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida oldindan rejalashtirilgan 53 ta tadbir - rejadan 25 tasi es aktualligini yo'qotdi.

Shuningdek, xuddi shu sababga ko'ra, qabul qilingan 10 ta investitsion proektdan 7 tasi amalga oshirilmay qoldi. Yuqorida ko'satib o'tilganlardan tashqari, mintaqa davlatlarining iqtisodiy integratsiyasiga negativ ta'sir ko'satib turuvchi omillardan biri sifatida 1995-yil tuzilgan va tarkibida Rossiya, Belorussiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlari kirgan Bojxona ittifoqining tuzilishini ko'rsatishimiz mumkin. To'g'ri, oldin bu tashkilot o'z samarasini ko'rsatdi; ishtirokchi – davlatlar orasida o'zaro savdo hajmi osholi, yagona bojxona qonunchiligini ishlab chiqarish bo'yicha bir qator ishlar qilindi. Lekin hozirgi payta, ular orasida haqiqiy savdo urushi ketayotganini ishtirokchi – davlatlarning rasmiy vakillari ham tan olishmoqda.

Lekin yuqoridagi qo'iqtisodiy munosabatlarni bartaraf etishda va keng hamkorlikni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi barcha nizoli masalalarga nuqta qo'ydi. Prezidentimiz suv masalasida shunday dedi: „Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash

bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan o'zaro foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT bosh kotibining „suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq" degan pozitsiyani to'la qo'llab-quvvatlaymiz.

Shunchalik komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini to'liq hisobga olishdan boshqa qo'ldan yo'li yo'q. O'zbekiston BMT ning preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to'g'risidagi konvensiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri — Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana menING qo'lima — Orol fojiasi aks ettirgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q[1].

Mavjud bo'lgan muammo va to'siqlar bilan bir vaqtning o'zida Markaziy Osiyo

[1] Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 19-sentyabridagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq www.pres-service.uz.

davlatlarining iqtisodiy hamkorligi zaruriligini va keyinchalik iqtisodiy integratsiyalash jarayoniga daxldor bolgan bir qator obyektiv sabablar va qulayliklarni etirof etishimiz darkordir. Ular ichidan quyidagilarni ajratib korsatishimiz mumkin:

- davlatlarning regionidagi yuqori darajadagi orasro boglaqligi, bu esa oz navbatida turli sohalarda integratsion formalar uchun asos bolo oladi.
- yagona kommunikatsiya infrastrukturaning mavjudligi — neft va gazprovodlar, elektr tarmoqlari, temiryol va suv xojaliklari, aloqa va yagona informatsion borliqning mavjudligi;
- mintaqa davlatlarining kop yillar davomida yagona xojalik tarkibida bolishlari va uzviy boglaklikda faoliyat korsatishlari;
- yagona suv resurslari tizimi mavjudligi
- mintaqa davlatlari orasida kop tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi;
- buning natijasida tashqi tasirdan bir, muncha himoyalangan yagona ichki bozorga ega bolish bilan bir qatorda,

mintaqa. davlatlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishishiga ham erishish mumkin;

- strategik kuchlar balansiga ega bolish siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish yolidagi barcha davlatlarning harakatlari va hotoro.

Xulosa.

Yuqoridagi ko'rsatilganlarni e'tiborga olgan holda, xulosa sifatida xalqaro tajribaga tayanib, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish bo'yicha quyidagi variantlarni taklif etish joiz deb o'laymiz.

- erkin savdo zonasini tashkil qilish;
- bojxona ittifoqini tashkil qilish;
- Umumiy bozorni tashkil qilish;
- Iqtisodiy ittifoq;
- Valyuta ittifoqini tashkil qilish.

Bizning fikrimizcha mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy integratsiyasini amalga oshirishning eng effektiv yo'li — bu ayrim muhim sohalarning iqtisodiy hamkorligini yo'lga qo'yish va tenglik bilan ularni birlashtirishdir. Bunday sohalarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Birinchidan, savdo-iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish. Buning natijasida mintaqa davlatlari o'rtasidagi tovar aylanish hajmi oshadi.

Ikkinchidan neft va gaz quvurlarining, elektr tarmoqlarining, suv resurslarining

effektiv va ratsional qollanilishi. Bu esa har bir davlatning milliy iqtisodiga ijobiy ta'sir korsatadi.

Uchinchidan, transport kommunikatsion sohada hamkorlikning oshirilishi tranzit yuklarning hajminino oshishiga olib keladi. Bunino natijasida, har bir davlat oladigan tolovlarning miqdori oshishiga, shuninodek, savdo-sotiqning rivojlanishiga erishish mumkin.

To'rtinchidan, qonun hujjatlari va normativ aktlarni garmonizatsiya qilish, shuninodek qollanilayotgan tariflarni kelishgan holda bir xil qilib belgilash.

Yana bir muammo juda tez fursat mobaynida o'z yechimini topmoq lozim deb o'ylaymiz. — bu yagona moliya bozorini tashkil qilish va milliy valyutalarni o'zaro ayrboshlash masalasidir. Mintaqa davlatlarida erkin almashtirladigan valyuta miqdori hamlogiga qaramasdan, bu davlatlar o'zaro savdo-sotiq qilishda uchinchi davlat valyutasidan foydalanish (dollar yoki yevro) ancha ayanch li holdir. Milliy valyutalar konvertatsiyasi yolga qeyish esa bir talay muammolarni hal qilib beradi.

- ugondagi erkin almashtiriladigan valyutani saqlab qolish va boshqa maqsadlarga yönaltirish.
- davlatlar ortasidagi savdo–sotiqni rivojlantirish.
- ushbu mintaqadagi barcha davlatlar iqtisodining yetakchisi hisoblangan kichik va orta biznes subyektlari aktivligini oshirishga erishish mumkin.

Yuqoridagilarga xulosa qilar ekanmiz, Ular hozir Osiyo davlatlarining integratsiyalashuvi ularga öz iqtisodiyotini yuksaltirish uchun bir qator qöshimcha qulayliklarni yaratib beradi. Masalan, mintaqavy hamkorlik tözi yolga qoyilsa qisqa muddatlarda oliy sifatli raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkonini tuğiladi. Shuningdek, hozirgi paytda mintaqaning barcha davlatlari uchun nihoyatda zarur bölib turgan chetel investitsiyalarining oqimining miqdori ham köp jihatdan bu yerdagi integratsion jarayonlarga boğliqdir.

Chunki chet ellik investorlarni avvalo alohida olingan davlatlardan köra mintaqadagi birlashgan bozor köproq qiziqtiradi. Mintaqa integratsiyasining yana bir

foydali jihati, tashqi ta'sirlardan himoya salohiyatining oshishidir.

Mintaqaning energetika, mineral va boshqa turdagi xomashyolar bilan to'liq ta'minlanganligi, qulay geografik o'rinda, ya'ni Sharq va G'arb o'rtasidagi yo'llar kesishuvida joylashganligi, shuningdek, mintaqa davlatlari xo'jaliklarining bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga egaligi, ishchi kuchining arzonligi va mehnat resurslarining anchagina yuqori malakali bo'lishi bunga juda qulay muhitni yaratib beradi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: „O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz.

Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam"[1]

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. 2019 yil 19-noyabrdagi B.M.T. Bosh Assambleyasining 74-sessiyasida nutq. www.prs-service.uz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagi „Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilashga sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni // www.uza.uz.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini „Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi // www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi „O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni www.lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi „Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Farmoni www.press-service.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: „O'zbekiston", 2007. www.lex.uz.

6. Karimov I.A. O'zbekistonning kelajagi buyukligiga ishonchim komil! // O'zbekiston. Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.. – T.: O'zbekiston – 1996.

7. Karimov. I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin T.2.. – T.: O'zbekiston 1996. – 320 b.

8 O'zbekiston kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat mafkura T.: O'zbekiston 1996.

9 Karimov I.A Muntaqaviy xavfsizlikdan yalpi xavfsizlik sari // Bunyodkorlik yo'lidan. T.: O'zbekiston – 1996.

10. Karimov I.A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T.: O'zbekiston 1998.

11. Karimov I.A. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik // Bunyodkorlik yo'lidan. T.: O'zbekiston 1998.

12. Karimov. I.A O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi // Bunyodkorlik yo'lidan T4. – T.: O'zbekiston – 1996.

13. Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz T7. – T.: „O'zbekiston", 1999

14. Karimov I.A Yuksak manaviyat yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat 2008.

15. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka

erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
16. Karimov I.A. Biz tanlagan yol – demokratik taraqqiyot va ma'rifat dunyo bilan hamkorlik yoli T. 11 – T.: „O'zbekiston" 2003
17. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 22-dekabridagi „Oliy Majlisga Murojatnoma"si www.press-service.
18. Mirziyoyev Sh.M 2017-yil 19-sentyabridagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq www.pres-service-uz.
19. Mirziyoyev Sh.M 2017-yil 10-sentyabridagi Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo'yicha birinchi sammitdagi nutqi www.pess-service.uz.
20. Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlar kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 18.10.2016.
21. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqi 09.09.2016 www.press-service.uz.
22. Karimov I.A. O'zbekiston suvsiz yuradigan muz too emas // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot kafolatlari T.: O'zbekiston 2008.
23. Ahmedov, Xaydaminov Z, O'zbekiston Respublikasi qisqacha ma'lumotnomasi – T.: O'zbekiston 1998.

Internet resurslari.

1 www.tdpu.uz.

2. www.ziyonet.uz.

3. www.edu.uz.

4 www.mondaviyat.uz.

5. www.bilim.uz.

III. Xulosa.

3.1 Internet yangiliklari

3.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro'yhati.

3.3. O'mining prezentatsiyasi.

MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Telegraf.uz da chop etilgan «Yevropa xalq partiyasi» prezidenti siyosiy maslahatchisi Xorxe Mestre-Xordaning (Ispaniya strategik tadqiqotlar instituti) fikriga ko'ra, O'zbekistondagi siyosiy barqarorlikning asosini tashqi aralashuvlarga qarshi yo'naltirilgan jipslashgan tashqi siyosat tashkil qiladi.

Ukrainadagi voqealar sababli Rossiya va G'arb o'rtasidagi munosabatlar darajasida pasayish kuzatildi. Bundan tashqari, sobiq ittifoq davlatlari, jumladan Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik ittifoqiga a'zo-davlatlarning Rossiyaga nisbatan ishonchsizligi ortmoqda. Ular o'rtasida masofa saqlashga harakat qilmoqda. Qayd etish kerakki, O'zbekistonning dengizga chiqish yo'li mavjud emas, u bevosita Xitoy va Rossiya yaqinida joylashgan, shuningdek Afg'oniston bilan chegaradoshdir.

Ma'lumki, O'zbekiston Rossiya va mintaqa bo'ylab boshqa qo'shni davlatlar bilan umumiy tarixga ega. Shunga qaramay, mamlakatning har qanday shakldagi tashqi aralashuvlarga qarshi yo'naltirilgan tashqi siyosati siyosiy barqarorlik kafolatining asosi sifatida xizmat qilmoqda.

Bu orada, mamlakat asta-sekinlik bilan muhim siyosiy voqealar sari odimlamoqda. Jumladan, kelgusi uch oy ichida O'zbekistonda parlament saylovlari (shu yilning 21 dekabrida) hamda prezident saylovlari (2015 yil mart oyi) bo'lib o'tadi. Aytish kerakki, mazkur saylovlar butun mintaqadagi barqarorlik uchun alohida ahamiyatga ega.

Ukraina va Qrimdagi so'nggi voqealar Markaziy Osiyo davlatlarining ma'lum darajadagi xavotiriga sabab bo'ldi. Bu borada, quyidagi jihatlarni qayd etish mumkin. Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya va Xitoy kabi ikkita buyuk mamlakat o'rtasida joylashgan bo'lib, ular bilan yaxshi munosabatlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari to'rtta yadroviy mamlakat (Rossiya, Xitoy, Pokiston va Hindiston) bilan o'ralgan dunyodagi yagona hududlardir. Uchinchidan, Afg'onistondan «AYSAF»ning olib chiqilishi mintaqadagi davlatlarda islom terrorchiligi darajasining kuchayishiga ta'sir qiladi.

Yevropa Ittifoqi va AQSh siyosiy-shakllantirish doiralari tashqi siyosatning Markaziy Osiyo yo'nalishini dolzarb holatda saqlab turish uchun bu omillarni ko'zdan qochirmasligi zarur.

O‘zbekiston sobiq ittifoqning boshqa davlatlari uchun namuna sifatida xizmat qila oladi, chunki u barcha yirik davlatlar bilan teng masofada shakllantirilgan ko‘p asrlik tashqi siyosatini saqlab qolishga erishdi.

1991 yilda mustaqillika erishgan paytidan boshlab O‘zbekiston (qo‘shni Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistondan farqli tarzda) Xitoy foydasiga strategik tanlovni amalga oshirmadi va Rossiya geosiyosati kun tartibiga ham qo‘shilmadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston (Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston da’volariga qaramay) Yevroosiyo iqtisodiy hamkorligiga kirmadi va Rossiya, Xitoy, G‘arb bilan pragmatik tashqi siyosat yuritishga qaror qilib KXBT (Kollektiv xavfsizlik haqidagi bitim tashkiloti)ni ham tark etdi.

O‘zbekiston shuningdek, teng masofadagi tashqi siyosatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, «Xonobod» aeroporti orqali Afg‘onistondagi NATO kuchlariga moddiy-texnik ta’minot ko‘rsatdi. Bu aeroport keyinchalik o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Shu bilan birga, Germaniya hukumati bilan Termiz shahrida tranzit punktni ko‘zda tutuvchi bitim imzolangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyoti va mahsulot bozorlarini diversifikatsiya qilishga urinmoqda. Mamlakat mintaqada Xitoy g‘arbidagi asosiy bo‘g‘imga aylangan. Muvozanatlashgan tashqi siyosat va yetarlicha tabiiy resurslar zaxiralari tufayli O‘zbekiston biron marotaba tashqi aralashuvlarga to‘qnash kelmadi. Biroq, hech bir mamlakat to‘liq himoyalana olmaydigan tahdidlar ham mavjud.

Siyosiy barqarorlik

O‘zbekistonda 21 dekabr kuni bo‘lib o‘tadigan parlament saylovlari Oliy Majlis quyi palatasining 135ta o‘rnini yangilaydi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning taklifi bilan yangi Bosh vazir tayinlanadi.

Mustaqillikka erishganidan keyin o‘zbek hukumatiga xos bo‘lgan sifatlardan biri bu – mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida prezident I.Karimov siyosatini jadal konsolidatsiya qilishdan iborat. O‘zbekistondagi mazkur siyosiy barqarorlik mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning 8 foizga o‘sishini ta’minlab bermoqda.

Shu paytgacha biron marta hukumatning meros bo‘lib o‘tishi jarayoni haqida gap ochilmaganligi sabab, 2015 yilning birinchi choragida bo‘lib o‘tadigan prezident saylovlarida I.Karimov uchta asosiy sababga ko‘ra o‘z mandatini yangilaydi, degan taxmin mavjud. Birinchidan, mamlakat iqtisodiyoti o‘sishini ta’minlab berayotgan ichki siyosiy barqarorlikni yanada kuchaytirish maqsadida. Ikkinchidan, mamlakatni ikkita real tahdid – Afg‘oniston va Tojikistondagi islom

terrorchiligidan himoya qilish, shuningdek tashqi ishtirokchilarga ichki siyosatdagi har qanday zaiflikdan aralashuv uchun vosita sifatida foydalanish imkonini bermaydigan amaldagi siyosiy yo'nalishni davom ettirish maqsadida. Uchinchidan, bir tomondan O'zbekiston va boshqa tomondan Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan suv muammosi bo'yicha Markaziy Osiyoda o'z o'rnini mustahkamlash maqsadida.

Mamlakat milliy rivojlanishining asosiy strategiyasi hisoblangan «O'zbek modeli»da qayd etilishicha, O'zbekiston hukumati «yangi uyni qurmay turib, eskisini buzma» hikmatiga amal qilgan. O'zbekiston asta-sekin ijobiy natijalarni ko'rsatayotgan taraqqiyot yo'lini tanladi. Mustaqillik yillari olib borilgan demokratik islohotlar O'zbekiston tomonidan tanlangan yo'l haqiqatdan ham to'g'ri ekanligi xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinishiga qaratilgan edi.

Haqiqatda yuqorida keltirilgan ibora Mustaqillik bayramini nishonlash vaqtida prezident I.Karimov tomonidan aytilgan bo'lib, mamlakatning rivojlanish tizimida o'z aksini topdi.

Ta'kidlash joizki, Yevropa Ittifoqi va undagi davlatlar O'zbekistonni sadoqatlilik va diniy bag'rikenglik modeli bo'lgan zamonaviy davlat sifatida e'tirof etmoqda. Yevropaning bu boradagi sayi-harakatlari O'zbekiston hukumati bilan hamkorlik o'rnatishga qaratilishi kerak, natijada Toshkent demokratiyani qurish jarayonida Yevropaning sherigiga aylanishi mumkin.

Pragmatik va teng masofadagi tashqi siyosat

Geografik nuqtai nazardan O'zbekiston Xitoy va Rossiyadan qalqon shaklidagi davlatlar bilan yaxshi himoyalangan. Biroq, bu holat o'zini to'liq himoyada his qilishga asos bo'lmaydi, chunki Rossiya Qirg'iziston va Tojikistonda harbiy bazalarga ega. Janubda esa O'zbekiston turli terrorchilik guruhlari uchun bandargohga aylangan Afg'oniston bilan chegaradosh. Bundan tashqari, O'zbekiston ochiq dengiz yo'llariga chiqa olmaydi va Yevropa hamda Osiyodagi boshqa davlatlar bilan o'zaro hamkorlikka kirishish imkonini beradigan infratuzilma tarmog'iga muxtoj.

Beqarorlik xususidagi turli taxminlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi vaziyat barqaror bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda jahonning ko'plab davlatlari mintaqadagi mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik borasida ijobiy tajriba to'plashga erishdi. Shu ma'noda, O'zbekiston muammolarni hal qilish va qo'shni davlatlar bilan nizolarga barham berish yo'lida ogohlantiruvchi diplomatiyaga tayanmoqda.

Si Szinpin rahbarligi ostida Markaziy Osiyoda Xitoy tashqi siyosatining faollashishi mintaqada Rossiyaning ta'siriga qarama-qarshi kuch sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, Xitoy rahbarining 2013 yilda O'zbekistonga tashrifi chog'ida umumiy qiymati 15 mlrd. AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish bo'yicha 31ta hujjat imzolandi. Shu bilan birga, mamlakatlar mavjud uchta gaz quvuridan tashqari, yana birini qurish haqida kelishib olishdi. Energiya manbalariga bo'lgan ehtiyoj tufayli Pekin energetik masalada mintaqadagi davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishga tayyor. Bu holat Rossiya uchun Markaziy Osiyodagi iqtisodiy vositalardan foydalanish imkonini jiddiy ravishda cheklashi mumkin.

2000 yillar boshidan o'zbek tashqi siyosatida ikki tomonlama shakldagi munosabatlar rivojlana boshladi. O'zbekistonning mintaqadagi barqarorlikka sodiqligi quyidagi asosiy jihatlardan iborat bo'lgan «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi» orqali izohlanadi:

1. O'zbekiston mamlakatdagi milliy manfaatlarga zid kelmaslik sharti bilan ittifoqlar va tashkilotlarda ishtirok etish huquqini o'zida qoldiradi.

2. O'zbekiston turli harbiy bloklarda ishtirok etmaydi va tashkilot harbiylashtirilgan taqdirda undan chiqib ketish huquqiga ega.

3. O'zbekiston o'z hududida har qanday xorijiy bazalar yoki ob'ektlarni joylashtirmaydi.

4. O'zbekiston Qurolli kuchlari chet eldagi harbiy operatsiyalarda ishtirok etmaydi.

2012 yilda O'zbekiston o'z mustaqilligini to'laqonli saqlab qolish va xorijiy davlatlarning aralashuvlarisiz tashqi siyosat yuritish uchun KXBT (Kollektiv xavfsizlik haqidagi bitim tashkiloti)ni tark etdi, Yevroosiyo Ittifoqiga a'zo bo'lmadi va «Xonobod» bazasini yopdi.

Sovet ittifoqi tarqalib ketganidan so'ng, O'zbekiston va Yevropa o'rtasidagi munosabatlar uchta asosiy bosqichni bosib o'tdi. 1992-2001 yillarda asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, davlat mulkini xususiylashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish, zamonaviy armiyani tashkil qilish va O'zbekistonni asosiy xalqaro ta'limlarga integrallashtirishdan iborat bo'ldi.

Ikkinchi davr o'z ichiga 2001-2011 yillarni oladi. Bunda O'zbekiston «AYSAF»ning Afg'onistondagi harbiy harakatlariga ma'lum ko'mak ko'rsatdi.

Uchinchi davr iqtisodiy va institutsional rivojlanish orqali avvalgi davrlarning barcha elementlari ishtirokida ko'p tarmoqli hamkorlik bilan ajralib turadi.